

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**Iroda XAYRULLAYEVA**

**HINDISTON TARIXIDAGI MASHHUR  
XOTIN-QIZLAR**

Risola

**Toshkent - 2025**

Xayrullayeva I.

**Hindiston tarixidagi mashhur xotin-qizlar.** Risola. – T.: “Best-publish” nashriyoti, 2025. – 52 b.

*Mas'ul muharrir:* t.f.d., prof. S.B.Shadmanova

*Taqrizchilar:* N.E.Karimova – t.f.d., prof.  
S.T.Davlatova – t.f.d., prof.

Mazkur risola Hindistonda davlat boshqaruvi, siyosiy, ilmiy, madaniy, ijtimoiy va sport sohalarida faoliyat yuritgan mashhur ayollar hayoti va faoliyatini keng qamrovda o'rganadi. Asarda qadimdan to hozirgi kungacha Hindiston tarixida muhim iz qoldirgan ayol arboblari – sultonlar, malikalar, siyosatchilar, olimlar, rassomlar, sportchilar va tadbirkorlar faoliyatiga oid tafsilotlar to'plangan.

Matnda Roziya Sulton, Rudrama Devi, Nur Jahon, Jodha Bay, Mumtoz Mahal, Rani Lakshmi Bai kabi tarixiy arboblari, shuningdek, Indira Gandi, Sonia Gandi, Mamata Banerji, Nirmala Sitharam, Pratibha Patil, Droupadi Murmu kabi zamonaviy siyosatchilar portretlari yoritilgan. Ilm-fan va ta'lim sohasida Savitribai Phule, Ramabai Sarasvati, Kamala Sohoni, Janaki Ammal, Kalpana Chavla kabi ayollarning o'rni ochib berilgan. Madaniyat va san'atda Amrita Sher-Gil, Mahadevi Varma, Asha Bhosle kabi iste'dod egalari ko'rib chiqilgan.

Shuningdek, Nilima Ghose, Meri Kom, Mithali Raj, PV Sindhu, Hima Das kabi sport sohasida muvaffaqiyat qozongan ayollar hayoti va yutuqlari tahlil qilingan. Ayollar faoliyati ijtimoiy taraqqiyot, gender tengligi, ilmiy salohiyat va milliy qadriyatlar bilan bog'liq muhim masalalarni qamrab oladi. Tadqiqot Hindiston tarixidagi ayollar faoliyatining ko'lami, qiyinchiliklar va erishilgan yutuqlarni ochib beradi, zamonaviy gender tadqiqotlari uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu risola Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining AL-7823051605-sonli “Sharq mamlakatlarida gender munosabatlari (Sharqning eng mashhur 100 ayoli)” elektron platformasini yaratish” nomli amaliy loyiha doirasida nashr etildi.

Risola Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Ilmiy kengashining 2025-yil 29-martdagi 8-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-9076-2-3

© Xayrullayeva I., 2025  
© “Best-publish” nashriyoti, 2025

## KIRISH

Barchamizga ma'lumki, insoniyat tarixida xotin-qizlar roli alohida ahamiyatga ega. Biror mamlakat jamiyatidagi erkinlik, haq-huquq, demokratiya tamoyillarining qay darajada qaror topganini aniqlash omillaridan biri bu – jamiyatdagi xotin-qizlar turmush sharoitini o'rganishdir. Zero, bu dunyo ayol bilan mukammal. U jamiyatning ajralmas bir zanjiri hisoblanadi. Shuningdek, xotin-qizlar nafaqat jamiyatda, balki davlat siyosatida ham o'z o'rinlariga ega hisoblanadilar.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ham shu maqsadda qabul qilingan edi.<sup>1</sup>

"Xotin-qizlarga e'tibor hamma vaqt barcha sa'y-harakatlarimiz markazida bo'lishi, hammamizning vazifamizga aylanishi kerak. Oilaga e'tibor aslida bu o'zligimizga e'tibordir",- deydi davlatimiz rahbari SH. Mirziyoyev.<sup>2</sup> Prezidentimiz tomonidan xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, respublika, viloyat, shahar va tuman xotin-qizlar qo'mitalari tuzilmasi tubdan takomillashtirildi.<sup>3</sup>

Bu kabi sa'y-harakatlar nafaqat bizning mamlakatimizda, xususan, Hindiston davlatida ham amalga oshirib kelinmoqda. Mustaqillikka erishilgandan so'ng, parlament jamiyatdagi gender nomutanosiblikni bartaraf etish maqsadida, xotin-qizlar huquqini erkaklarniki bilan tenglashtirishga doir bir necha dasturlar ishlab chiqdi. Hozirda Hindiston Konstitutsiyasining 14<sup>23</sup>, 15<sup>24</sup>, 15(3)<sup>25</sup>, 42<sup>26</sup>, 51(A) (E)<sup>27</sup> moddalarida asosida gender tenglik himoya qilinadi.<sup>4</sup> Bundan tashqari xotin-qizlar huquqini ta'minlash maqsadida bir necha tashkilotlar faoliyat yuritib kelmoqda, jumladan, "Butun Hindiston demokratik ayollar uyushmasi", "Hind oilaviy

---

<sup>1</sup> <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyev-xotin-qizlar-qo'mitasi>

<sup>2</sup> <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyev-xotin-qizlar-qo'mitasi>

<sup>3</sup> <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyev>

<sup>4</sup> Bhart ka sanvidhan. 2003

jamg'armasi", "Ayollar bo'yicha milliy komissiya", "Ayollar va bolalar rivojlanish vazirligi", "Ayollar bo'yicha xalqaro tadqiqotlar markazi", "BMT ayollari" va boshqalar shular jumlasidandir<sup>5</sup>. Bu tashkilotlarni O'zbekistondagi Xotin-qizlar qo'mitasi bilan qiyoslasak bo'ladi.

Hindiston mustaqillikka erishgach, parlament erkaklar hamda ayollar o'rtasidagi tengsizlikni olib tashlash orqali ayollarga erkaklar bilan teng huquqli maqom berish uchun yetarlicha kuch sarfladi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun xotin-qizlarga ta'lim berish, nikoh yoshini belgilash, ko'pxotinlilikni oldini oladigan va monogamik nikohlarni majburiy holatga keltiradigan qonunlar ishlab chiqildi, jumladan, Hindiston Konstitutsiyasining 14-moddasiga binoan, ayollarning tengligi himoya qilindi.<sup>6</sup> Davlat xotin-qizlarga tenglik maqomni berish orqali ayollar va erkaklar o'rtasidagi gender notenglikni bartaraf etish uchun kuch sarflamoqda.<sup>7</sup> Bundan tashqari, uchinchi hokimiyat hisoblanmish ommaviy-axborot vositalari ham hozirda xotin-qizlar haq-huquqini tan oladigan jamiyatni targ'ib qilib kelmoqda.

Jamiyatda mavjud bo'lgan shu kabi qiyinchliklarga qaramasdan bor kuch hamda shijoatini sarf qilgan holda jamiyatda o'z o'rnini topayotgan xotin-qizlar talaygina. Ular jamiyatda mavjud bo'lgan, jumladan, siyosat, ta'lim, ilm-ma'rifat, madaniyat, sport va boshqa shu sohalarida o'z iste'dodlarini namoyon qilgan holatda nomlarini tarix zarvaqlarida aks ettirib kelmoqdalar. Ushbu risolada biz hind jamiyatida katta burilish yasagan, mavjud ijtimoiy-siyosiy muammolarga qaramasdan o'z maqsadlarida erishgan xotin-qizlarning hayotlarini birma-bir ko'rib chiqamiz.

---

<sup>5</sup> <https://www.india.gov.in>

<sup>6</sup> Bhart ka sanvidhan. 2003

<sup>7</sup> STATUS OF WOMAN IN ANCIENT, MEDIEVAL AND MODERN PERIOD. Chapter 2.p 22.

## 1. DAVLAT BOSHQARUVIDA VA SIYOSIY HAYOTDAGI AYOLLAR

Sharq mamlakatlari boshqaruv tepasida asosan erkaklar faoliyat yuritib, ayollarning ishtiroki kamdan kam hollarda kuzatiladi. Janubiy Osiyoda joylashgan Hindiston mamlakatida ham xotin-qizlarning siyosat tepasiga kelishi bir muncha mushkulroq vaziyat bo'lib, asosan elita qatlam vakillari yoxud siyosiy doirada faoliyat yurituvchi shaxslar oilasida tug'ilgan yoki turmushga chiqqan ayollar hokimiyatga bevosita yoki bilvosita ishtirok etganlar. O'rta asrlar tarixiga qaraydigan bo'lsak, podshoh erta vafot etib, valiahd yosh bo'lsa, malikalar shaxzoda voyaga yetguniga qadar hokimyatni boshqarganiga, shuningdek, ba'zi bir malikalar bilvosita podshoh orqali mamlakatning siyosiy hayotini o'z nazorati ostida tutib turganliklarini guvohi bo'lishimiz mumkin.

XX asrdan keyin Hindistondagi vaziyatni tahlil qiladigan bo'lsak, mamlakat siyosiy hayotida o'z o'rniga ega bo'lgan mashhur ayollar asosan siyosiy hayotda faol ishtirok etayotgan shaxslar oilasida tug'ilgan yoxud shu oila vakillari kelini hisoblanishadi. Quyida Hindiston siyosiy tarixida o'zining o'chmas izlarini qoldirgan hind ayol rahbarlar hayotini ko'rib chiqamiz.

### **Roziya Sulton (1205-1240)**

Roziya Sulton nafaqat Hindistondagi, balki butun Janubiy Osiyodagi birinchi musulmon sultonxonim hisoblanib, Dehli sultonligini 1236-1240-yillarda boshqargan. Sultonxonim tarixchilar tomonidan adolatli va qobiliyatli davlat rahbari sifatida tilga olinadi. Roziya Sultonning harbiy sohada ham anchagina o'quvi bor bo'lib, hukmronligi davrida uning nomi va tasviri tushirilgan tangalar zarb qilingan<sup>8</sup>.



Roziya Sulton 1205-yilda Shamsiddin Eltutmish xonadonida tavallud topgan bo'lib, oilada yagona qiz farzand hisoblangan. Uning otasi hukmdor Qutbiddin davrida Dehliga qul bo'lib keltirilgan bo'lsa-da, o'zining sadoqati bilan hukmdor e'tiborini qozonib, viloyat hokimi etib tayinlanadi. Eltutmish o'zining barcha farzandlariga, jumladan, Roziyaga ham harbiy sohada o'zi bilgan barcha sir-

<sup>8</sup> Юлия Боровинская. РАЗИЯ — ДОЧЬ КИПЧАКА, ЖЕНЩИНА-СУЛТАН. Как тюрчанка управляла Индией? (2024). <https://qalam.global/ru/articles/raziia-doc-kipcaka-zenshhina-sultan-ru>

asrorlarni o'rgatadi, xususan, kamondan o'q otish, qilichbozlik san'ati, hokimiyat boshqaruvi bo'yicha yaxshi ta'lim beradi.

1236-yil 30-aprelda Eltutmish vafot etib, Roziyani o'zining qonuniy vorisi etib tayinlaydi. Musulmon zodagonlar buni rad etib, taxtga o'zining qobilyatsiz akasi Feruzni o'tqazishadi. Olti oylik hukmronlikdan so'ng akasi o'ldirilgach, taxtga 1236-yil 10-noyabrda Roziya Sulton keladi.

Roziya taxtga "Jaloliddin Roziya" nomi bilan o'tirib, "Zamon qirolichasi" nomi bilan tangalar zarb ettiradi. U hukmronligi davrida yangi hududlarni bosib olish va uyerda hukmronlikni mustahkamlash choralarini ko'radi. Shuningdek, bu davrda u mahalliy aholi farzandlari uchun maktab, akademiya va ommaviy kutubxonalar ochilishiga homiylik qiladi<sup>9</sup>.

Biroq, turkiy zodagonlar uning boshqaruvidan norozi bo'lib, uni hokimiyatdan ag'daradilar. Bhatin gubernatori Malik Altuniya Roziyaning go'zalligi va zukkoligiga oshiq bo'lib, uni o'z nikohiga oladi. U hukumatni Roziyaga qaytarib olib berish maqsadida Dehliga hujum qiladi, ammo 1240-yil 13-oktabrda mag'lubiyatga uchraydi. Roziya va Malik Altuniya Dehlidan qochib, Baytal hududiga yetib kelishadi. Mag'lubiyatdan omon qolgan askarlar ham ularni tark etishadi. Hozirgi kunda ham Roziya Sultonning qabri qayerdaligi noma'lumligicha qolmoqda. Taxminlarga ko'ra, uning qabri Baytal, Dehli yoki Tonk hududlarida bo'lishi mumkin. Shunga qaramasdan, uning xotirasi hamon xalq og'zaki ijodlarida, tarixiy asarlarda yashab kelmoqda.



### **Rudrama Devi (1262-1289)**

Roziya Sulton hikoyasiga o'xshash, hozirgi Telangana atroflarida hukmronlik qilgan yana bir jasur jangchi malika Rudrama Devi edi. U Roziya Sulton kabi siyosatdan anchagina xabari bor, xalqning himoyasi uchun doimo tayyor, jamiyatdagi xotin-qizlar ahvolini yaxshilashga qaratilgan qator choralar ko'rgan hukmdor sifatida tilga olinadi. Italiyalik sayohatchi Marko Polo o'z asarlarida malikaning xalqiga ko'rsatgan sa'y-harakatlarini e'tirof etadi<sup>10</sup>.

<sup>9</sup> Юлия Боровинская. РАЗИЯ — ДОЧЬ КИПЧАКА, ЖЕНЩИНА-СУЛТАН. Как тюрчанка управляла Индией? (2024). <https://qalam.global/ru/articles/raziia-doc-kipcaka-zenshhina-sultan-ru>

<sup>10</sup> Aradhan Singh. Udrama Devi: The warrior queen. //Shanvedhana. Vol. III. Issue-1. 2021. –P. 35-39.


Rudrama Devi hozirgi Telangana va Andhra-Pradesh hududlaridan iborat Kakatiya qirolligi malikasi edi. Biroq, kakatiyaliklarning dastlabki tarixi va kelib chiqishi hali hanuz noaniq. Dastlab, kakatiyalar g'arbiy Chalukyalarning feodallari bo'lgan va keyinchalik, 1163-yildan muhim kuch sifatida paydo bo'ldi. Qirol Ganapatideva 1199-1262-yillarda hukmronlik qilgan bo'lib, uning Rudrama va Ganapamba ismli ikki qizi bor edi.

O'rta asrlarda shohning vorisi uning qizi emas, balki o'g'li bo'lishi kerak, degan keng tarqalgan siyosiy qarash mavjud edi. Bu Kakatiya hukmdori uchun og'ir vaziyat edi, chunki uning o'zidan keyin biror o'g'li yo'q bo'lib, uning imperiyasi qulashi mumkin edi. Ammo uning bosh vaziri unga to'ng'ich qizini o'zining vorisi etib tayinlashni maslahat beradi. Shundan so'ng, malika Rudrama Devi 1259-yilda Kakatiya qirolligining taxtiga o'tirdi. U o'z saltanatini boshqargan paytida atigi 16 yosh edi.

1263-yilda yadavlar sulolasi podshosi Mahadeva kakatiyalar ustiga yurish boshlaydi, bu holatda malika o'zining mohirona harbiy jasoratini namoyon qilib, dushmanni mag'lub etadi. Shu tariqa malika hokimyatni 1289-yilgacha idora qiladi.<sup>11</sup>

### **Mehriniso (Nur Jahon Begim) (1577-1645).**

Nur Jahon – buyuk Boburiylar imperiyasi malikasi, to'rtinchi hukmdor boburiyzoda Jahongirning rafiqasi, siyosatchi, shoira bo'lgan<sup>12</sup>. Asli ismi Mehriniso Begim bo'lgan Nur Jahon 1577-yilda hozirgi Afg'onistonning Qandahor shahrida fors zodagoni Mirzo G'iyos va uning rafiqasi Asmat begim oilasida dunyoga keladi.



Uning ota-onasi yo'qchilik oqibatida o'z vatanidan Hindistonga, Akbarshoh saroyida xizmat qilishga ko'chib keladi.

1594-yilda o'n yetti yoshida Sherafg'onga (Ali Quli) turmushga chiqadi. 1611-yilda Ali Quli Bengaliya hokimi Qutbiddinning qabulida muhim masala yuzasidan tortishib qoladi va usha yerda o'ldiriladi. Mehriniso va uning qizi Agraga jo'naydi, ma'lum muddat o'tgach Jahongir Nur Jahonni o'z nikohiga oladi.

<sup>11</sup> Rudrama Devi (1259-1289): The brave warrior queen of the Kakatiya empire. <https://dharmayudh.com/rudrama-devi-1259-1289-the-brave-warrior-queen-of-the-kakatiya-empire/>

<sup>12</sup> Nur Jahan – Google Art and Culture. <https://artsandculture.google.com/entity/m02blvy>

Nur Jahon begim Jahongirshoh saltantida dono maslahatchi edi. U mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga doir ko'pgina tadbirlarni amalga oshirgan. "Gulob" va "atri Jahongiriy" nomli atirlarni kashf qilgan. Jahongirshoh rafiqasi sharafiga "Nur Jahoniy" deb atalgan 12 grammligina oltin tanga zarb ettirgan. Mehrinisoni saroyda Nurmahal (saroyning nuri), keyinchalik "Nur Jahon – jahon nuri" deb atashgan. U shuningdek, "Maxfiy" tahallusi bilan she'rlar ham bitgan.

1645-yilda Nur Jahon vafot etadi va Lohurdagi Shoh Dara qabristoniga dafn etiladi<sup>13</sup>.



### **Mariam uz-Zamoniy (Jodha Bai) (1544-1623)**

Mariam uz-Zamoniy xalq orasida "Jodha Bai" nomi bilan mashxur bo'lib, boburiyoda Akbarshohning sevimli rafiqasi bo'lgan. U 1542-yil 1-oktabrda Jaypur rajasi Bharmeli xonadonida tug'iladi.

Mariam asli rajputlik malika bo'lib, hindlar va musulmon o'rtasidagi siyosiy ittifoqni mustahkamlash maqsadida Akbarga turmushga chiqadi. Ularning nikohi diniy bag'rikenglik namunasi sifatida qabul qilingan. Jodha Akbarning mamlakatdagi diniy totuvlik siyosatini qo'llab-quvvatlagan, o'zining aqlliligi, zukkoligi va chiroyi bilan saroyda o'z hurmatiga ega hisoblangan. Turli siyosiy masalalarda Akbarshoh rafiqasi Jodha bilan tez-tez maslahatlashib, malika Akbarshoh haramida muhim o'rin egallagan<sup>14</sup>.



### **Arjumand bonu (Mumtoz Mahal) (1593-1631)**

Arjumand bonu tarixda Mumtoz Mahal nomi bilan mashhur bo'lib, boburiyoda Shoh Jahonning sevimli rafiqasi, Nur Jahon begimning jiyani bo'lgan. Arjumand bonu 1593-yil Agra shahrida fors zodagonlari oilasida tavallud topgan. U 1612-yil 19 yoshida Shoh Jahonga turmushga chiqadi va boburiyoda tomonidan unga "Mumtoz Mahal" (Saroyning ulug'vori) unvoni beriladi. Mumtoz Mahal saroydagi siyosiy-ijtimoiy ishlarda doimo

<sup>13</sup> Turg'un Fayziyev. Temuriy malikalar. – Toshkent:2013. – 41-48 b.

<sup>14</sup> Jodha Bai's 474th birth anniversary: 17 facts about the Queen Mother - India Today

<https://www.indiatoday.in/education-today/gk-current-affairs/story/jodha-bai-344257-2016-10-01>

turmush o'rtog'iga yordamlashib kelgan, Shohjahon ham ayrim masalalarda doimo ayolining fikrini so'rab turgan<sup>15</sup>.

Mumtoz Mahal 1631-yilda Dekan hududi (hozirgi Madhya-Pradesh) Burhanpur shahrida o'zining o'n to'rtinchi farzandi Gavhararo begimni dunyoga keltirayotganida vafot etadi. Malika vafotidan so'ng, Jahongir o'z sevgisi sadoqati ramzi sifatida "Toj Mahal"ni barpo ettiradi. Bugungi kunda Toj Mahalda Arjumand bonu va Shoh Jahonning qabrlari joylashgan bo'lib, u haqiqiy sevgi timsoli sifatida dunyo mo'jizalari qatoridan o'rin olgan.

### **Rani Lakshmibay (1828-1858)**

Rani Lakshmibay Hindistonning Uttar-Pradesh shtatida joylashgan Maratha knyazlik qirolichasi bo'lgan. 1857-yilda Lakshmibay Britaniya mustamlakachi hukumatiga qarshi qo'zg'alonda faol ishtirok etgan. Malika ilmi, shu bilan bir qatorda yaxshigina chavandoz, qilichboz, mohir mergan ham bo'lgan.



### **Indira Gandhi (1917-1984)**

Mustaqil Hindistonning birinchi bosh vaziri Javoharlal Neruning yagona farzandi Indira Gandhi 1917-yilning 19-noyabrida Ollohobod shahrida tug'ilgan. Indira yoshligidanoq juda aqlli va o'jar bo'lib, u Hindiston, Shvetsariya va Angliyadagi maktablarda, xususan Oksforddagi Somervil kollejida tahsil oladi.



Indira Gandhi yoshligidanoq turli sinovlarda toblanadi, jumladan, 1936-yil onasi sil kasalligidan vafot etadi, mustaqillikka erishish pog'onasi pallalarida esa otasi qamoqqa olinadi. Ushbu qiyinchiliklarga yosh Indira sabr bilan bardosh beradi. 1942-yil Indira Gandhi oilaviy do'sti Feroz Gandiga turmushga chiqadi. Indira Gandhi va Ferozlar Rajiv va Sanjay ismli ikki o'g'il farzandli bo'lishadi. Ikkala o'g'li ham keyinchalik bobosi va onasi kabi siyosat sohasidan ketadi<sup>16</sup>.

<sup>15</sup> Dona M.D., Chris L.R. and Robert W. Gemstones in the Era of the Taj Mahal and the Mughals. //Gem art of the Taj Mahal. 2019. 294-319 pp.

<sup>16</sup> Zareen Masani. Indira Gandhi: A biography. – Delhi:Oxford University Press. January 1976. – 341 p.

1947-yilda Javoharlal Neru Hindistonning birinchi bosh vaziri etib tayinlanganidan so'ng, Gandi davlat rahbarlari bilan diplomatiya olib borish, ular bilan turli munozaralar yuritishni puxta egallab, 1950-yillarning boshida otasining norasmiy siyosiy vakili sifatida tanila boshlaydi.

1955-yilda Indira Hindiston Kongressi partiyasiga a'zo bo'ldi va oradan to'rt yil o'tib, partiya prezidentiga aylandi. 1964-yil otasi vafotidan so'ng parlament Rajya Sabha palatasiga o'tdi, Indira esa Axborot va radio eshittirish vaziri etib tayinlandi. 1966-yilda Lal Bahodur Shastri vafotidan so'ng, u mamlakat bosh vaziri lavozimini egalladi. Indira bu lavozimda 1977-yilgacha, shuningdek, qayta saylovlardan so'ng 1980-yildan 1984-yilgacha, ya'ni vafotiga qadar faoliyat yuritdi<sup>17</sup>.

1984-yilda Amritsarda Oltin ibodatxona sikhlar uchun mustaqil davlat yaratishga intilgan Jarnail Singh boshchiligidagi ekstremistlar tomonidan bosib olindi. Vaziyatni nazoratga olish uchun Gandi ibodatxonaga armiya yuboradi va natijada ko'p qon to'kilishiga sabab bo'ldi. 1984-yil 31-oktabrda esa Indira Gandi Oltin ibodatxonada sodir bo'lgan voqea uchun qasos olishga uringan ikki sikh tansoqchilari tomonidan hovlisida otib o'ldiriladi.



### **Maharani Gayatri Devi (1919-2009)**

Maharani Gayatri Devi 1919-yil 23-mayda Buyuk Britaniyaning London shahrida hind qirollik oilasida tug'ilgan<sup>18</sup>. U Bengaliyadagi Kuch Behar Maharajasi Indira Rajening (1892-1968) to'rtinchi farzandi edi.

Gayatri Devi asosan uyida qo'shimcha ta'lim olib, keyinchalik xususiy maktabda tahsil olgan. Keyinroq Londondagi Glendower nomli tayyorlov maktabda, so'ngra 1936-yilda Shantiniketandagi Visva-Bharati universitetida o'qishini davom ettiradi. Gayatri Devi akademik ta'lim bilan birgalikda bu yerda musiqa va raqsni ham o'rgandi. Uning hayotida Robindranat Tagorning asarlari alohida o'rin egallaydi. Uning fikricha,

---

<sup>17</sup> Dr. Jhumur Ghosh. Indira Gandhi's call of emergency and press censorship in India: the ethical parameters revisited. //Global Media Journal-Indian Edition. Vol.7.Issue-2. 2017. -P. 15.

<sup>18</sup> D. Devi Gayatri, and Santha Rama Rau. A Princess Remembers: TheMemoirs of the Maharani of Jaipur. South Asia Books, 1998. - P.36.

jamiyatdagi har bir qiz ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil bo'lishi, o'z hayotini o'zi tanlashi, ta'lim olishda erkin bo'lishi zarur deb hisoblaydi<sup>19</sup>.

Gayatri Devi mahalliy ayollar ta'lim olishini istardi. U 1943-yil 12-avgustda Jaypurdagi Maharani Gayatri Devi davlat maktabini qurdiradi. Bu Rajasthan shtatida tashkil etilgan birinchi qizlar maktabi edi. Uning fikricha, qizlar uchun alohida maktab tashkil etish katta ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyatdagi ayollarning hayotiga ma'naviy yorug'lik olib kelishga xizmat qiladi.

Hindiston mustaqillikka erishib, knyazlik shtatlari tugatilgandan so'ng u Svatantra partiyasida muvaffaqiyatli siyosatchiga aylandi. Gayatri bu partiyada 12 yil xizmat qildi, shu vaqt ichida Indira Gandi siyosiy hukumatining mashhur tanqidchisi bo'ldi. Siyosatdan ketganidan so'ng, tinch hayot kechirdi, vaqtini sevimli mashg'ulotlari va dam olish bilan o'tkazdi.

U 2009-yil 29-iyulda Jaypurda 90 yoshida vafot etdi. U paralitik ichak tutilishi va o'pka infeksiyasidan aziyat chekardi. U 250 million funt sterlingga baholangan mol-mulkini nabiralariga qoldirdi.

### **Sheila Dikshit (1938-2019)**

Sheila Dikshit hind siyosatchisi, Dehli shahrida uzoq siyosiy faoliyat yuritgan, Hindistonning bir nechta shtatlarida bosh vazir lavozimlarida ishlagan.



Sheila 1938-yil 31-martda Hindistonning Kapurtala knyazlik shtatidagi hozirgi Panjob shahrida hindu oilasida dunyoga kelgan. U dastlabki ma'lumotini Yangi Dehlidagi Iso va Maryam monastirida olib, Dehli universiteti qoshidagi Miranda uyida tarix bo'yicha san'at magistr bosqichida tahsil olgan.

Sheila Dikshitning siyosiy faoliyati 1984-yil boshlanib, shu yili Radjiv Gandi uni Hindiston hukumati parlament ishlari bo'yicha ittifoq vaziri etib tayinladi. Parlament a'zosi sifatida u Lok Sabhaning hisob-kitob qo'mitasida ishlagan. U shuningdek, 1984-1989-yillar BMTning Ayollar maqomi bo'yicha komissiyasida Hindiston vakili sifatida ishtirok etgan.

---

<sup>19</sup> Sonam Soni. The Rajmata of Jaipur: Maharani Gayatri Devi. Rajasthan History Congress. 2022. – P.342.

1990-yil avgust oyida Uttar-Pradesh shtat hukumati tomonidan ayollarga nisbatan vahshiyliklarga qarshi harakatga rahbarlik qilgani uchun Sheila va uning 82 nafar hamkasblari 23 kunga qamoqqa tashlanadi<sup>20</sup>. Avvalroq, 1970-yillarning boshida u “Yosh ayollar uyushmasi” raisi bo‘lgan va Dehlida ishlaydigan xotin-qizlar uchun ikkita yotoqxonaga tashkil qiladi. Bundan tashqari, u “Indira Gandhi Memorial Trust” loyihasidagi bosh ijrochilardan biri ham edi<sup>21</sup>.

1998-2003, 2008-2013-yillarda Dehli qonunchilik assambleyasi a‘zosi, 1998-2003 yillarda Dehli bosh vaziri, 2014-yil Kerala shtatining yigirmanchi gubernatori lavozimlarida ishladi. U 2019-yil 10-yanvarda Dehli Pradesh Kongressi qo‘mitasi prezidenti etib tayinlandi va shu yilning iyul oyida vafotiga qadar o‘z lavozimida qoldi<sup>22</sup>.

Sheila Dikshit o‘z siyosiy faoliyati davomida bir necha bor hukumat tomonidan taqdirlanadi, xususan, 2008-yil Hindiston jurnalistlari uyushmasi tomonidan “Hindistonning eng yaxshi shtat bosh vaziri”, 2009-yil New Delhi Television Limited kompaniyasi tomonidan “Yil siyosatchisi”, 2010-yil Hind-Eron hamjamiyatining “Dara Shukoh” mukofotlari shular jumlasidandir<sup>23</sup>.



### **Sonia Gandhi**

Sobiq bosh vazir Rajiv Gandining rafiqasi, asli italiyalik hind siyosatchisi, Hindiston Milliy Kongressi partiyasining sobiq prezidenti, Neru-Gandi oilasining uchinchi siyosiy avlodi Sonia Gandhi 1946-yil 9-dekabrda Italiya shahrida tavallud topgan. U mahalliy maktablarda boshlang‘ich ta‘limni tugatganidan so‘ng, Angliyaning Kembrij shahriga til kurslarida tahsil oladi. Buyerda Sonia bo‘lajak turmush o‘rtog‘i

---

<sup>20</sup> Did you know Sheila Dikshit was jailed for 23 days in 1990?

<https://www.dnaindia.com/india/report-did-you-know-sheila-dikshit-was-jailed-for-23-days-in-1990-2774058>

<sup>21</sup> Heart filled with grief: Sonia Gandhi writes to Sheila Dikshit's son Sandeep - India Today

<https://www.indiatoday.in/india/story/sonia-gandhi-writes-sheila-dikshit-son-sandeep-1571706-2019-07-20>

<sup>22</sup> Sheila Dikshit, 3-Time Chief Minister, Appointed Delhi Congress Chief

<https://www.ndtv.com/india-news/sheila-dikshit-former-chief-minister-to-be-new-delhi-congress-chief-1975829>

<sup>23</sup> Delhi CM Sheila Dikshit honoured with Dara Shikoh award - India Today

<https://www.indiatoday.in/india/story/delhi-cm-sheila-dikshit-honoured-with-dara-shikoh-award-71520-2010-04-10>

Radjiv Gandhi bilan tanishib, 1968-yil unga turmushga chiqadi. Keyinchalik ular Hindistonga qaytib, qaynonasi bosh vazir Indira Gandhi qarorgohida yashay boshlashadi.

1991-yil turmush o'rtog'i Rajiv vafot etganidan so'ng, Sonia 1997-yilda siyosiy hayotga qo'shildi. 1998-yil U Hindiston Milliy Kongressi partiyasi prezidentligiga nomzodini qo'yadi. Sonianing kelib chiqishi xorijlik bo'lgani bois siyosiy faoliyati ko'p baxs-munozaraga sabab bo'lgan. U mustaqillikdan keyin Milliy partiyani boshqargan birinchi xorijlik ayol edi.

Sonia Gandhi 1999-yildan 2004-yilgacha Lok Sabha muxolifati yetakchisi, 2004-2006- va 2010-2014-yillar Milliy Maslahat Kengashi raisi, 2004-2023-yillar Birlashgan Progressiv Alyans raisi, 2019-2022-yillar Hindiston Milliy Kongressi prezidenti, 2024-yil 4-apreldan Rajasthan Rajya Sabha a'zosi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

Sonia va Rajiv Gandining ikki nafar farzandi bor, bular, Rahul va Priyanka Gandilar. Sonia Gandhi 2013-yil Forbes jurnali tomonidan dunyodagi eng kuchli ayollar ro'yxatidagi yigirma birinchi, yetakchi ayollar bo'yicha esa uchinchi o'rinni egalladi<sup>24</sup>.

### **Priyanka Gandhi**

Priyanka Gandhi Vadra – Gandilar oilasi a'zosi bo'lib, Hindiston Milliy kongressi partiyasi faol ishtirokchisi hisoblanadi.

Priyanka Gandhi 1972-yil 12-yanvarda Rajiv va Sonia Gandilar oilasida dunyoga keladi. U asosiy ta'limni Dehlida oladi, 1997-yilda Priyanka dehlilik tadbirkor Robert



Vadraga turmushga chiqadi va Priyanka Gandhi ismiga Vadra familiyasi ham qo'shiladi. Hozirda ularning ikki nafar farzandi bor<sup>25</sup>.

Siyosiy sohaga qiziqish Priyankada oilaviy meros bo'lib, siyosiy tadbirlarda oilasi bilan doimo qatnashib yurgan. Siyosiy sohaga 2019-yildan boshlab kirib keldi. 2019-yil 4-fevralda Hindiston Milliy Kongressi Bosh kotibi, 2019-2023-yilda Sharqiy Uttar-Pradesh bosh

---

<sup>24</sup> Sonia Gandhi third most powerful woman in Forbes list | Latest News India - Hindustan Times  
<https://www.hindustantimes.com/india/sonia-gandhi-third-most-powerful-woman-in-forbes-list/story-ywXlS1IFavoPY9QgwBdiVK.html>

<sup>25</sup> Priyanka Gandhi Biography - About family, political life, awards won, history  
<https://www.elections.in/political-leaders/priyanka-gandhi.html>

kotibi, 2024-yil 28-noyabrdan Lok Sabha aʼzosi sifatida siyosiy faoliyat yuritib kelmoqda<sup>26</sup>.

### **Mamata Banerji**



Mamata Banerji hind siyosatchisi, Gʻarbiy Bengal shtatining amaldagi bosh vaziri boʻlib, 2011-yildan ushbu lavozimda ishlashni boshlagan. Uni koʻpincha hurmat bilan “Didi” (*Bengal tilida katta opa degani*) deb atashadi.

Banerji xonim 1955-yil 5-yanvarda Hindistonning Kalkutta shahrida bengal-hind oilasida tugʻilgan. Bolaligidan Mamata doimo siyosiy sohada faoliyat yuritishni orzu qilgan, shu sabab maktab davrlaridayoq turli debat va siyosiy tadbirlarda doimo faol ishtirok etib kelgan.

U Jogamaya Devi kollejining tarix fakultetini tamomlaydi, soʻngra, Kalkutta universitetida islom tarixi boʻyicha magistrlik darajasini oladi. Shundan soʻng, u yana huquqshunoslik yoʻnalishida tahsil olib, yuridik diplomni ham qoʻlga kiritadi.

Siyosiy sohadagi faoliyati 1970-yillardan boshlanib, 1975-yillarda ommaviy axborot vositalari orqali anchagina tanilib qolgandi. 1976-1980-yillarda Gʻarbiy Bengaliyada Mahila kongressi bosh kotibi lavozimini egallaydi.

Hindiston sobiq bosh vaziri Narasimha Rao 1991-yilda Mamatani Inson resurslarini rivojlantirish, Yoshlar ishlari va sport, Ayollar va bolalar taraqqiyoti boʻyicha ittifoq davlat vaziri lavozimiga nomzod qilib koʻrsatadi va bu lavozimda Mamata 1993-yilgacha faoliyat yuritadi.

1991-2011-yillarda Lok Sabha parlament aʼzosi, 2003-2004-yillarda Vazirlar Mahkamasida, 2004-yilda Kon va koʻmir vaziri, 2009-2011-yillarda Temir yoʻllar vaziri, 2021-yilda Gʻarbiy Bengaliya qonunchilik assambleyasi aʼzosi va koʻplab siyosiy rahbarlik lavozimlarda ishlab kelmoqda<sup>27</sup>.

Shuningdek, Mamata Banerji siyosiy sohadan tashqari, ingliz, bengal tillarida samarali ijod qilgan. Uning yigirmadan ortiq kitoblari, jumladan, “Mavjudlik uchun kurash” (1998) va

<sup>26</sup> प्रियंका गांधी के हाथ यूपी विधानसभा चुनाव में 'कांग्रेस' की कमान, क्या साबित कर पाएंगी खुद को, ऐसा रहा है सियासी सफर

<https://www.timesnowhindi.com/elections/article/command-of-congress-in-the-up-assembly-elections-2022-in-the-hands-of-priyanka-gandhi-know-how-is-her-political-journey/386271>

<sup>27</sup> Mamata Banerjee: Biography, family, education. <https://www.javatpoint.com/mamta-banerjee>

“Demokratiya qirg‘ini” (2006) kabi badiiy adabiyot hamda she‘riy to‘plami nashr etilgan<sup>28</sup>.

### **Smriti Irani**

Aktrisa, model, siyosatchi Smriti Zubin Irani 1976-yil 23-martda Nyu-Dehlida tavallud topgan. U oilada to‘ng‘ich farzand bo‘lib, ikkita singlisi bor. Irani hind, bengal, marathi, gujarati va panjob tillarini puxta egallagan. Oilaviy sharoitini yaxshilash hamda o‘zining orzusi tufayli dastlab modellik sohasida faoliyat yuritadi. Irani “Miss Hindiston - 1998” go‘zallik konkursi ishtirokchisi bo‘lgan. 2000-yildan boshlab film sanoatiga kirib kelib, bir qancha kino va teleseriallarda suratga tushadi. 2002-yilda Zee TV telekanalida “Ramayana” serialida Sita obrazini gavdalantiradi<sup>29</sup>.



Bugungi kunda Irani siyosiy sohada ham katta muvaffaqiyat qozondi. 2003-yilda u Bharata Janata Partiyasiga (BJP) qo‘shildi va bir yildan so‘ng Maharashtra Yoshlar qanoti vitse-prezidenti etib saylandi. 2010-yilda BJP Milliy kotibi, usha yilning iyun oyida BJP Hindiston ayollar qanoti prezidenti, 2011-yilda Rajya Sabha a‘zosi, 2014-yilda Inson resurslarini rivojlantirish (HRD) vaziri, 2017-yil Axborot va radioeshittirish vaziri, 2019-yildan Ayollar va bolalar taraqqiyoti vaziri bo‘lib ishlab kelmoqda<sup>30</sup>.

### **Nirmala Sitharam**

Nirmala xonim hind siyosatchisi, iqtisodchi, Bharatiya Janata partiyasi (BJP) rahbari, 2019-yildan buyon Hindiston Respublikasi Moliya va koorparativ ishlar vaziri bo‘lib ishlaydi.



Nirmala Sitharam 1959-yil 18-avgustda Tamil Nadu shtatining Madurai shahrida tug‘ilgan. Boshlang‘ich ta‘limni Villupuram tumanida tahsil olib, Madras va Trichirapalli shaharlarida esa oliy ta‘limni davom ettiradi. 1984-yil Dehlidagi Javoharlal Neru universitetida magistrlik diplomini qo‘lga kiritadi.

<sup>28</sup> Mamata Banerjee | Indian Politician & Chief Minister of West Bengal | Britannica  
<https://www.britannica.com/biography/Mamata-Banerjee>

<sup>29</sup> Smriti Irani Naik Biography - Age, Education, Family, Political Life  
[https://www.elections.in/political-leaders/smriti-irani.html#google\\_vignette](https://www.elections.in/political-leaders/smriti-irani.html#google_vignette)

<sup>30</sup> Smriti Irani: biography, education, twitter, news, religion, son. <https://www.javatpoint.com/smriti-irani>

2003-2005-yillarda Ayollar bo'yicha Milliy komissiya<sup>31</sup> a'zosi bo'lib ishlagan. 2008-yilda Bharata Janata Partiyasiga (BJP) qo'shilda va 2010-yilda BJPning Milliy matbuot kotibi sifatida ishini davom ettirdi. Shuningdek, Sitharam 2014-2016-yillar Rajya Sabha a'zosi, 2014-2017-yillar Ittifoq savdo-sanoat bo'yicha davlat vaziri, 2017-2019-yillar Ittifoq mudofaa vaziri, 2019-yildan Ittifoq korporativ ishlari vaziri lavozimlarida faoliyat yuritib kelmoqda<sup>32</sup>.

Siyosiy faoliyati davomida mukofot va unvonlar bilan taqdirlandi, jumladan, 2019-yilda Javoharlal Neru universiteti unga "Hurmatli bitiruvchi" mukofotini topshirgan bo'lsa, shu yili Forbes jurnali tomonidan uning nomi eng qudratli 100 nafar ayol orasidan o'ttiz to'rtinchi, 2023-yilda esa o'ttiz ikkinchi o'rinni egalladi<sup>33</sup>.



### **Mehbuba Muftiy Sayid**

Mehbuba Muftiy hind siyosatchisi 2016-yildan 2018-yilgacha Jammu va Kashmirning 9-bosh vaziri lavozimida ishlagan. U Jammu va Kashmirning birinchi ayol bosh vaziri hisoblanadi<sup>34</sup>.

Mehbuba muftiy Muhammad Sayidning (sobiq Jammu-Kashmir bosh vaziri) qizi bo'lib, 1959-yil 22-mayda Jammu va Kashmirning Kulgam tumanidagi Ahran qishlog'ida tug'ilgan. U Jammudagi xotin-qizlar uchun mo'ljallangan davlat kollejining ingliz adabiyoti sohasini tamomlab, Kashmir universitetida huquqshunoslik fakultetida tahsil olishni davom ettiradi. 1989-yildan so'ng u Nyu-Dehliga ko'chib o'tadi va Bombay savdo bankiga qo'shiladi. Biroz vaqt o'tib yana Jammu-Kashmirga qaytadi. Uning turmush o'rtog'i ham siyosiy sohada faoliyat yuritib, siyosiy tahlilchi, Milliy konferensiya partiyasida xizmat qiladi<sup>35</sup>. Uning siyosiy doiradagi insonlar bilan hayot kechirishi ham uning siyosiy sohada ketishiga katta turtki bo'ldi.

Mehbuba Muftiy 2009-yil yanvar oyida Jammu va Kashmir Xalq demokratik partiyasi prezidenti, 2016-2018-yillarda Jammu va

---

<sup>31</sup> Hindiston hukumatining qonuniy organi bo'lib, ayollarga taalluqli barcha siyosiy masalalar bo'yicha maslahat beradi, 1992 yilda tashkil etilgan.

<sup>32</sup> Nirmala Sitharam. <https://in.linkedin.com/in/nsitharaman>

<sup>33</sup> Nirmala Sitharaman  
<https://www.forbes.com/profile/nirmala-sitharaman/>

<sup>34</sup> India Today. <https://www.indiatoday.in/india/story/mehbooba-mufti-pdp-chashme-shahi-shift-detention-srinagar-article370-1619351-2019-11-15>

<sup>35</sup> Insider tears into Muftis and family party - Telegraph India  
<https://www.telegraphindia.com/india/insider-tears-into-muftis-and-family-party/cid/1515167>

Kashmir bosh vaziri, 2014-2016-yillarda Lok Sabha (quyi palata) a'zosi bo'lgan. Hozirda 2020-yil 20-oktabrdan Gupkar deklaratsiyasi bo'yicha xalq ittifoqi raisi o'rinbosari lavozimida ishlab kelmoqda<sup>36</sup>.

### **Harsimrat Kaur Badal**



Harsimrat Kaur Badal 1966-yil 25-iyulda Dehlida Satyajit Singh Majitiya oilasida tug'ilgan. U Dehlidagi Loreto monastir maktabida o'qigan. U oliy ma'lumotli, to'qimachilik dizayni bo'yicha diplomga ega. U 1991-yil 21-noyabrda Suhbir Singhga (*siyosatchi, tadbirkor, 2 marotaba Panjob bosh vaziri lavozimida faoliyat yuritgan*) turmushga chiqadi, hozirda uning ikki qiz va bir o'g'li bor.

Uning siyosiy faoliyati 2009-yilgi Hindistondagi umumiy saylovlaridan boshlagan. Harsimrat Kaur Badal Hindiston Milliy Kongressi nomzodi Raninder Singhning yig'gan 120 960 ovozi bilan mag'lub etib, Bathinda saylov okrugida Lok Sabha deputatligiga saylandi. Uning birinchi nutqi 2009-yil 3-dekabrda bo'lib, u yerda 1984-yilda sikhlarga qarshi qo'zg'olon qurbonlari va omon qolganlar haqida o'z hamdardligini bildirdi. Harsimrat Kaur Badal 2014-yilda Hindiston Milliy Kongressi - Panjob Xalq partiyasi qo'shma nomzodi Manpreet Singh Badalni mag'lub etib, Bathindadan deputat etib qayta saylandi. Keyinchalik u Bosh vazir Modi hukumatida Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha davlat vaziri etib tayinlandi. U 2019-yilgi Lok Sabha saylovida Bathindadan ketma-ket uch marta saylandi. 2019-yil may oyida u o'z faoliyatini Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash vaziri sifatida davom ettirdi.

Harsimrat Kaur Badal 2020-yil 17-sentabrda hukumat tomonidan qabul qilingan fermer xo'jaligi to'g'risidagi yangi qonun loyihalariga norozilik bildirish uchun vazirlar mahkamasidan iste'foga chiqdi<sup>37</sup>.

Kaur Badal va uning oilasi, shuningdek, biznes sohasida ham faol bo'lib, qaynotasi va turmush ortog'i ko'plab savdo-sanoat

<sup>36</sup> Mehbooba is J-K's first woman CM <https://www.hindustantimes.com/india/mehbooba-is-j-k-s-first-woman-cm-and-india-s-16th/story-6ini2soMfHSq2RmPPsqPjO.html>

<sup>37</sup> Harsimrat Kaur Badal quits Modi govt to protest farm bills | India News - Times of India <https://timesofindia.indiatimes.com/india/harsimrat-kaur-badal-will-quit-modi-govt-to-protest-farm-bills-sad-chief/articleshow/78170723.cms>

mulklariga, onasi esa bir nechta sanoat kompaniyasiga boshchilik qiladi.

Shuningdek, Kaur 2008-yil sentabrda Panjobda xotin-qizlarga nisbatan zo'rovonlikka qarshi kurashish, ularning imkoniyatini kengaytirish, daraxtlarni saqlab qolishga qaratilgan "Nanhi Chhan" loyihasini ishga tushirdi. U maktab, kollej, ibodatxona, cherkov va shahar markazlarida faoliyat yuritadi. Ushbu loyiha orqali Panjob qishloqlarida ko'plab qizlar mato tikish, to'qish va gular bilan bezash bo'yicha o'qitiladi<sup>38</sup>.

### **Pratibha Patel**



Pratibha Patil xonim hindistonlik huquqshunos va siyosatchi, Hindiston prezidenti (2007-2012) lavozimini egallagan birinchi hind ayoli hisoblanadi.

Pratibha Patil 1934-yil 19-dekabrda Maharashtra shtatining Jalgaon shahridagi Nadgaon qishlog'ida marathi oilasida dunyoga keldi. U olti aka-uka orasidagi uchinchi yolg'iz qiz farzand edi. Onasidan 12 yoshligidan ayrilgan Patil xolasi Baasahibning nazorati ostida ulg'ayadi<sup>39</sup>. Yoshligidanoq Patil barcha urf-odatlar, ayniqsa, diniy odatlarga rioya qilishni yaxshi o'zlashtiradi. Shu tariqa kuchli irodali, g'amxo'r, intizomli, keng fikrlovchi voyaga yetgan shaxsning poydevori qo'yildi.

Pratibhaning otasi Nanasahib yolg'iz qiz farzandiga ta'lim berish to'g'risida xotiniga bergan va'dasini bajardi va uning siyosatshunoslik hamda iqtisod yo'nalishi bo'yicha ikki marta diplom olishini ta'minladi. U ilk ta'limni Jalgaondagi Vidyalaya shahrida olgan va Jalgaon shahridagi Moolji Jetha kollejida siyosatshunoslik va iqtisod bo'yicha magistrlik darajasini oldi. Keyinchalik u Bombaydagi (Mumbai) hukumat yuridik kollejida huquq bakalavri darajasini oldi. Patil o'zining professional faoliyatini Jalgaon tuman sudida amaliyotchi advokat sifatida boshlagan va bir vaqtning o'zida o'zini turli ijtimoiy faoliyatga, ayniqsa, kambag'al ayollarning imkoniyatlarini kengaytirishga bag'ishladi<sup>40</sup>. 1962-yil 27 yoshida u Jalgon saylov okrugi bo'yicha Maharashtra qonunchilik assambleya-

<sup>38</sup> The 'Mahila Maharati' of Punjab politics- Harsimrat Kaur Badal and her life

<https://www.truescoopnews.com/newsdetail/the-mahila-maharati-of-punjab-politics-harsimrat-kaur-badal-and-her-life>

<sup>39</sup> Smt. Pratibha Patil's Strong Family Background. <https://www.pratibhapatil.info/personal/>

<sup>40</sup> Archives of women's political communication. <https://awpc.cattcenter.iastate.edu/directory/pratibha-d-patil/>

sigasaylandi. Shundan so'ng, 1985-1990-yillarda Rajya Sabha parlament a'zosi bo'lishidan avval to'rt marotaba ketma-ket Muktainagar (14-Maharashtra qonunchilik assambleyasi) saylov okrugida g'alaba qozondi. 1985-yildan 1990-yilgacha Rajya Sabhada parlament a'zosi bo'lib ishlagan. 1991-yil Amravati saylov okrugi (Hindiston g'arbidagi Maharashtra shtatidagi 48 ta Lok Sabha parlament saylov okrugidan biri) deputati etib saylandi.

Patil Maharashtra Qonunchilik Assambleyasidagi faoliyati davomida Vazirlar Mahkamasi, Rajya Sabha va Lok Sabhada turli rasmiy lavozimlarni egallagan. Bundan tashqari, u bir necha yil davomida Maharashtra-Pradesh kongressi qo'mitasining prezidenti sifatida faoliyat yuritgan. Shuningdek, u shahar banklari va Hindiston milliy kooperativ ittifoqi boshqaruv kengashi a'zosi lavozimlarida ishlagan.

1996-yilda Patil Rajastan shtati gubernatori etib tayinlandi. Keyin u Kongress partiyasi tomonidan 2007-yilda Hindiston prezidenti lavozimiga nomzod qilib ko'rsatildi va saylovda g'alaba qozondi. 2007-yil 25-iyulda Hindiston prezidenti lavozimida ish boshladi, shu tariqa Pratibha Patil Hindistonning birinchi ayol prezidenti bo'ldi va bu lavozimda 2012-yilgacha faoliyat olib bordi.

Patil, shuningdek, ayollar va bolalar farovonligi hamda jamiyatning kam ta'minlangan qatlamlariga o'z faoliyati davomida alohida e'tibor qaratdi. U Mumbai va Dehli shaharlarida ishlaydigan ayollar uchun yotoqxonalar tashkil etib, qishloq yoshlari uchun Jalgaondagi muhandislik kolleji, ayollarni rivojlantirish bo'yicha farovonlik tadbirlarida ishtirok etuvchi "Shram Sadhana Trust" markazi, Jalgaon shahridagi ko'zi ojizlar uchun, shuningdek, Vimukta Jatis (ko'chmanchi qabilalar) kambag'al bolalari va Amravati tumanidagi qoloq sinflar bolalari uchun maktab tashkil qilib, Maharashtra shtatidagi Amravati shahridagi "Krishi Vigyan Kendra" (Fermerlarni o'qitish markazi) qurilishiga ham boshchilik qildi.

### **Droupadi Murmu**

Droupadi Murmu Hindistonning o'n beshinchi amaldagi prezidenti bo'lib, u 2022-yil 25-iyuldan buyon faoliyat yuritib kelmoqda<sup>41</sup>. U Hindiston prezidenti bo'lgan "rejalashtirilgan kasta (qabila)"



<sup>41</sup> Profile / President of India. <https://presidentofindia.nic.in/Profile>

hamjamiyatiga mansub birinchi shaxs hamda mamlakat mustaqilligidan keyin tugʻilgan birinchi prezidentdir. U shuningdek, Pratibha Patildan keyin bu lavozimni egallagan ikkinchi ayoldir<sup>42</sup>.

1958-yil 20-iyunda Odishaning Mayurbhanj shahridagi Uparbeda qishlogʻida Santhali qabilasi (hindyarimorolidagi avstroosiysi tilida soʻzlashuvchi munda etnik guruhi) oilasida tugʻilgan. Uning otasi Biranchi Narayan Tudu dehqon boʻlib, otasi va bobosi qishloq kengashining anʻanaviy boshliqlaridan edi<sup>43</sup>. Murmuning erta hayoti qiyinchilik va kurash bilan oʻtdi. Bu qiyinchiliklarga qaramay, u taʼlim olishga qaror qildi. Qishloq maktabida boshlangʻich taʼlimni tugatgandan soʻng, u oʻqishni davom ettirish uchun oʻz kuchi bilan Bhubanesvar shahriga bordi. U 1979-yilda Bhubanesvardagi Rama Devi ayollar kollejida sanʼat bakalavri darajasini oldi va oʻz qishlogʻida kollejda taʼlim olgan birinchi ayol boʻldi va shu yildan 1983-yilgacha Odisha hukumati irrigatsiya boʻlimida kichik yordamchi sifatida oʻz faoliyatini boshladi<sup>44</sup>.

1994-1997-yillar oraligʻida u Rajrangpurdagi “Shri Aurobindo Integral education and research” markazida oʻqituvchi boʻlib, hindiy, odia (*hind-oriy klassik tili*) tillari, matematika va geografiya fanlaridan dars berdi<sup>45</sup>. U oʻz faoliyati davomida xech ham maktabdan toʻliq maosh berishlarini soʻramagan<sup>46</sup>.

1997-yilda Murmu xotin-qizlar uchun ajratilgan oʻrindan mustaqil nomzod sifatida Odisha shtati Mayurbhanj tumani Rajrangpur shahri kengashi maslahatchisi etib saylandi<sup>47</sup>. Keyinchalik esa Bharatiya Janata partiyasiga (BJP) aʼzo boʻladi<sup>48</sup>.

---

<sup>42</sup> Droupadi Murmu: books about the president of India / The Times of India. <https://timesofindia.indiatimes.com/life-style/books/features/droupadi-murmu-books-about-the-president-of-india/photostory/102834120.cms>

<sup>43</sup> Draupadi Murmu, to be the first president to be born after Independence <https://www.thestatesman.com/india/draupadi-murmu-first-president-india-born-independence-1503092340.html>

<sup>44</sup> Profile / President of India. <https://presidentofindia.nic.in/Profile>

<sup>45</sup> Droupadi Murmu | The irresistible rise - The Hindu. <https://www.thehindu.com/news/national/profile-the-importance-of-being-draupadi-murmu/article65550479.ece>

<sup>46</sup> Presidential candidate Droupadi Murmu and Rairangpur connect | IN PICS - India Today. <https://www.indiatoday.in/india/story/president-candidate-droupadi-murmu-rairangpur-village-education-council-election-early-life-1966505-2022-06-24>

<sup>47</sup> The Sunday profile / Droupadi Murmu: Raisina Calling. <https://indianexpress.com/article/political-pulse/the-sunday-profile-droupadi-murmu-raisina-calling-8033868/>

<sup>48</sup> The Hindu. A tribal woman leader, backed by BJP, seeks to make history on July 18. <https://www.thehindu.com/news/national/profile-the-importance-of-being-draupadi-murmu/article65550479.ece>

2000-yilda Droupadi BJP deputati sifatida Rajrangpur saylov okruginan Odisha qonunchilik assambleyasiga saylandi. U shuningdek, Naveen Patanaik boshchiligidagi BJP va Biju Janata Dal – Biju xalq partiyasi hukumatiga mustaqil ravishda davlat vaziri sifatida faoliyat yuritdi.

2002-yilda Odisha shtati Baliqchilik va chorvachilik resurslarini rivojlantirish vaziri, 2004-yilda BJP tarkibida Rajrangpur saylov okrugi deputati, 2006-yilda BJP Schedule Tribe Morcha - Odisha shtati prezidenti kabi sohalarda faoliyat yuritdi<sup>49</sup>.

O'zining boy ma'muriy tajribasi va qabilaviy jamiyatlarda ta'limni yoyishdagi sa'y-harakatlari tufayli u o'ziga xos yo'l yaratdi. Qonun chiqaruvchi sifatidagi xizmatlari uchun u 2007-yilda Odisha Qonunchilik Assambleyasi tomonidan "Pandit Nilkanth Das - Eng yaxshi qonun chiqaruvchi" mukofoti bilan taqdirlangan.

2015-yilda Murmu Jharkhand (*Hindistonning sharqiy qismidagi shtat*) gubernatori<sup>50</sup> etib tayinlangan. U rejalashtirilgan qabilalar ko'p bo'lgan davlatning birinchi ayol gubernatori edi. U gubernator sifatidagi faoliyati davomida qabila farovonligini oshirish va konstitutsiyaviy qadriyatlarni himoya qilish ustida ishladi. Davlat universitetlarida imtihon va ishga qabul qilish jarayonlarida islohotlar olib bordi. U o'zining davlat arbobi va demokratik odob-axloqqa sodiqligi bilan barcha siyosiy partiyalar rahbarlarining hurmatiga sazovor bo'ldi.

2022-yil 26-iyulda Droupadi Murmu Hindiston prezidenti sifatida qasamyod qildi. U birinchi qabila vakili va bu lavozimni egallagan ikkinchi ayoldir. 2023-yilda Surinam va Serbiyaga davlat tashrifi bilan borgan prezident Droupadi Murmu Surinamning eng oliy unvoni – "Sariq yulduz zanjiri" ordenini olgan birinchi hindistonlik ayol bo'ldi<sup>51</sup>. Prezident sifatida Murmu qabila farovonligi, ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish va ijtimoiy adolat kabi masalalarga e'tibor qaratib kelmoqda.

---

<sup>49</sup> Draupadi Murmu: Age, Biography, Education, Husband, Caste, Net Worth & More – Oneindia. <https://www.oneindia.com/politicians/droupadi-murmu-39156.html>

<sup>50</sup> Jharkand gubernatori - Hindistonning Jxarkhand shtatining nominal davlat rahbari va Hindiston prezidentining vakili. Gubernator prezident tomonidan besh yil muddatga tayinlanadi.

<sup>51</sup> Profile / President of India. <https://presidentofindia.nic.in/Profile>

## 2. ILM-FAN VA TA'LIM SOHASIDAGI MASHHUR HIND AYOLLARI

Ilm-fan va ta'lim sohasi olamida XIX-XX asrlarda hind ayollari o'chmas iz qoldirishdi. Ular bu davrdagi xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi to'siqlarga qaramasdan o'z ustilarida ishladilar va ta'lim olish uchun bor kuchlarini safarbar qildilar. Ular jamiyatdagi barcha gender to'siqlarini yengib, tarixda o'z nomlarini qoldirdilar. Ularning bu sa'y-harakatlari, tinimsiz izlanishlari o'z sohalarini rivojlantirishga hamda keyingi avlodlar uchun o'ziga xos xarita yaratishga xizmat qildi. Bugungi kunda ilm-fan va ta'lim sohasida katta yutuqlarga erishayotgan hind xotin-qizlarining muvaffaqiyatida aynan XIX asr boshidagi ayollarning xizmatlari beqiyosdir.



### **Savitribay Phule (1831-1897)**

Savitribay 1831-yil 3-yanvarda Satara tumanidagi Naigaon qishlog'ida dehqon oilasida dunyoga keladi. 1840-yilda Savitribay Jyotirao Phulega turmushga chiqadi. Jyotirao Maharashtradagi ijtimoiy islohotchilardan biri bo'lib, u Savitribay ta'lim olish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Turmush o'rtog'idan o'qish va yozishni o'rgangan Savitribay keyinchalik maktabda tahsil olishni davom ettiradi. Jyotirao uni o'qishini davom ettirishi uchun Ahmadnagardagi Farar xonim institutiga joylashtiradi. U ayolining barcha xayriya ishlarida qo'llab quvvatlaydi<sup>52</sup>.

Hind feminizmining onasi hisoblangan Savitribay va uning turmush o'rtog'i Jyotirao birgalikda 1848-yilda Puna shahrida birinchi qizlar maktabini ochishadi va Savitribay qizlarga o'zi o'qituvchilik qila boshlaydi. U tarixda birinchi hind ayol o'qituvchisi sifatida qoldi. Savitribay 1852-yilda Britaniya hukumati tomonidan shtatdagi eng yaxshi o'qituvchi sifatida e'tirof etildi. 1864-yilda esa u qashshoq ayollar uchun boshpana tashkil qiladi<sup>53</sup>.

Savitribay va Jyotiraoning o'z farzandlari yo'q edi. Aytishlaricha, ularning brahman bevasining og'li Yashavantraoni asrab olishgan. Biroq, buni tasdiqlovchi manbalar keltirilmagan.

<sup>52</sup> Savitribai Phule: Biography, Age - Javatpoint  
<https://www.javatpoint.com/savitribai-phule>

<sup>53</sup> Savitribai Phule — Google Arts & Culture  
<https://artsandculture.google.com/story/savitribai-phule-zubaan/mAWBW6eHcTWSLg?hl=en>

1897-yil Nalasopara hududi atrofida vabo kasalligining uchinchi to'liqini boshlanadi. Savitribay 1897-yil vaboga chalib, 10-mart kuni vafot etadi.

Savitribayning merosi bugungi kunda ham hurmat bilan tilga olinadi. Uning xotin-qizlar tarbiyasi, ta'limidagi mehnati katta ehtiromga loyiqdir. 1983-yilda Puna shahrida unga atab haykal o'rnatiladi. Shuningdek, 1998-yil 10-martda uning nomi sharafiga India Post tomonidan marka chiqariladi. Uning tug'ilgan kuni 3-yanvar butun Maharashtra "Balika Din" (Qizlar kuni) sifatida nishonlanadi. 2015-yil Puna universiteti uning sharafiga Savitribay Phule universiteti deb o'zgartirildi<sup>54</sup>.

### **Pandita Ramabay Sarasvati (1858-1922)**

Pandita Ramabay 1858-yil 23-aprelda brahmanlar oilasida dunyoga keladi. Uning otasi Anant Shastri Dongre sanskrit olimi bo'lib, qiziga yoshligida sanskrit tilini o'rgatgan. Uning otasi ayollarning bilim olishini xohlar, onasi Lakshmi ham sanskrit tilini o'rgatgan edi.



1876-1878-yillardagi ocharchilik paytida yetim qolgan Ramabay ukasi Shrinivas bilan oilaviy an'anani davom ettirib, sanskrit tilidagi oyatlarini o'qib, mamlakat bo'ylab sayohat qilishadi. Tez orada Ramabay sanskrit tilini biladigan ayol sifatida uning shuhrati Kalkuttaga yetib boradi. 1878-yil Kalkutta universiteti senat zalida qilgan nutqi tufayli katta e'tirofga sazovor bo'ladi va unga sanskrit tilini bilgani uchun "Pandita" va "Sarasvati" unvonlari universitet rahbaryati tomonidan topshiriladi<sup>55</sup>.

1880-yil ukasi vafotidan so'ng Ramabay bengaliyalik advokat Bipin Behari Medhviga turmushga chiqdi. 1882-yil 4-fevralda turmush o'rtog'i vabo sabab dunyodan o'tadi. Ularning Manorama ismli qizlari bor. Turmush o'rtog'i vafot etgan davrda 23 yosh bo'lgan Ramabay Puna shahriga ko'chib o'tib, Arya Mahila Samaj jamiyatiga asos soladi. Ushbu jamiyatning maqsadi ayollarning ta'lim olishi va yosh nikoh qurishni oldini olishga qaratilgan edi.

<sup>54</sup> Pune university to be renamed after Savitribai Phule | Pune News - Times of India  
<https://timesofindia.indiatimes.com/city/pune/Pune-university-to-be-renamed-after-Savitribai-Phule/articleshow/37989022.cms>

<sup>55</sup> Overlooked No More: Pandita Ramabai, Indian Scholar, Feminist and Educator - The New York Times  
<https://www.nytimes.com/2018/11/14/obituaries/pandita-ramabai-overlooked.html>

Ramabayning hayoti juda mashaqqatli kechdi, erta yoshdanoq ota-onasi, ukasidan ayrildi, turmushidan ikki yil o'tib, beva qoldi. Biroq, u bularning barchasiga sabr qildi va qizi uchun barcha mashaqqatlarga bardosh berdi. U qizining ta'lim olishini ta'minladi. Manorama Bombay universitetida bakalavr bosqichini tamomladi. Keyinchalik Amerikada o'qishini davom ettirgan Manorama onasi oldiga qaytib, u bilan yonma-yon ishlay boshlaydi. U dastlab Sharada Sadan direktori bo'lib ishlaydi va 1912-yilda Hindiston janubidagi qoloq tuman Gulbargada (hozirgi Karnataka) xristian o'rta maktabini tashkil etishda onasiga yordam beradi.

1920-yilda Ramabayning sog'lig'i yomonlasha boshlaydi. 1921-yil qizining vafot etishi onasiga katta ruhiy zarba beradi. 1922-yil 5-aprelda Ramabay 63 yoshida vafot etadi.

Ramabay faoliyati davomida ko'p bor mukofot bilan taqdirlanadi, xususan, 1919-yilda Hindistonning Britaniya mustamlakasi tomonidan jamoatchilik ishlaridagi xizmatlari uchun "Kaysariy-hind" medali bilan mukofotlandi. Uning nomi Angliya cherkovida 30-aprelda xotira marosimi bilan eslanadi. 1989-yil 26-oktabrda uning hind xotin-qizlari taraqqiyotiga qo'shgan hissasi e'tirof etilib, Hindiston hukumati esdalik markasini chiqardi<sup>56</sup>.



### **Kamala Sohoni (1911-1998)**

Kamala Sohoni 1911-yil 18-iyunda Madhya-Pradesh shtatining Indor shahrida tug'ilgan. Uning otasi Narayanarao va amakisi Madhvrao Bhagvatlar kimyogar bo'lib, Bengalurdagi Tata Fanlar institutining bitiruvchilari edi. Kamala ham oilaviy an'anaga ko'ra, 1933-yilda Bombay universitetining kimyo va fizika bo'yicha bakalavr darajasini yoqladi. Hind biokimyogari Kamala Sohoni 1939-yilda ilmiy fanlar bo'yicha PhD darajasini olgan birinchi hind ayoli bo'lib, uning Hindiston Fanlar Instituti, Bengalurga o'qishga qabul qilinishi va ushbu oliygohda o'z ilmiy faoliyatini davom ettirishi hind xotin-qizlar tarixida oliy ta'limda tahsil olishiga yo'l ochib berdi<sup>57</sup>.

---

<sup>56</sup> Postage Stamps: Postage Stamps, Stamp issue calendar 2014, Paper postage, Commemorative and definitive stamps, Service Postage Stamps, Philately Offices, Philatelic Bureaux and counters, Mint stamps [https://postagestamps.gov.in/Stamps\\_List.aspx](https://postagestamps.gov.in/Stamps_List.aspx)

<sup>57</sup> How Kamala Sohoni Became the First Indian Woman Ph.D in Science <https://web.archive.org/web/20190120155728/https://www.thebetterindia.com/91026/kamala-sohoni-india-woman-scientist-iisc-cambridge>

Kamala Hindiston iste'molchilarga rahbarlik qilish jamiyatining (CGSI) faol a'zosi edi. U 1982-1983-yillarda ushbu jamiyatning prezidenti etib saylangan va "Keemat" deb nomlangan tashkiliy jurnal uchun iste'molchilar xavfsizligi bo'yicha bir necha maqolalar muallifi ham hisoblanadi.

U ilmiy tadqiqoti davomida vitaminlarning ta'sirini va hind aholisining eng kambag'al qatlamlari tomonidan iste'mol qilinadigan baklagiller, sho'rva va oziq-ovqat mahsulotlarining ozuqaviy qiymatini o'rgandi. Uning "Neera" deb nomlangan palma ekstraktining ozuqaviy foydalari haqidagi ishi usha paytdagi prezident Rajendra Prasadning taklifidan ilhomlangan edi. Kamala Sohoni ushbu ishi uchun Rashtrapati mukofotiga sazovor bo'lgan edi<sup>58</sup>.

Kamala Sohoni 1998-yil Nyu-Dehlida Hindiston Tibbiy Tadqiqotlar Kengashi (ICMR) tomonidan uyushtirilgan tabriklash marosimida behosdan yiqilib tushganidan so'ng ko'p o'tmay vafot etdi.

2023-yil 18-iyun kuni Google qidiruv tizimi Sohoni tavalludining 12 yilligi munosabati bilan uni "Doodle" logotipi bilan xotirladi<sup>59</sup>.

### **Janaki Ammal**

Hind olimi Janaki Ammal 1897-yil 4-noyabrda Kerala shtatining Thalassera shahrida tug'ilgan. Uning otasi Divan Bahodur Malabar tumani kolektori, onasi Devi Kuruvayi mustamlaka ma'muri Jon Child Hantingtonning qizi edi.



Ammal boshlang'ich maktabni Talasseri shahridagi monastirda o'qigan, so'ngra qirolicha Meri kollejida oliy ta'limni tamomlaydi. U Madrasdagi (hozirgi Chennai) prezidentlik kollejida botanika mutaxassisligi bo'yicha imtiyozli diplom oladi. 1924-yilda Michigan universitetiga kirib, 1926-yilda Barbour stipendiyasi orqali botanika bo'yicha magistrlik diplomini qo'lga kiritadi. 1931-yilda esa botanika mutaxassisligi bo'yicha PhD darajasini himoya qiladi. 1932-1934-yillarda Trivandrum kollejida assistent professor bo'lib ishlaydi<sup>60</sup>. Bu davrda oliy ta'limda tahsil olish xotin-qizlar uchun

<sup>58</sup> Indian Botanists: Kamala Sohoni - Woman, Who Established the Nutritive Value of the Plants, Consumed by Poor People

<https://web.archive.org/web/20190312230539/http://www.indianbotanists.com/2015/03/kamala-sohoni-woman-who-established.html>

<sup>59</sup> Kamala Sohoni's 112th Birthday Doodle - Google Doodles

<https://doodles.google/doodle/kamala-sohonis-112th-birthday/>

<sup>60</sup> EK Janaki Ammal: The 'nomad' flower scientist India forgot - BBC News

anchayin mashaqqatli bo'lib, Ammal barcha ijtimoiy to'siqlarni yengib o'tdi. U faoliyati davomida o'simliklarni ko'paytirish, sitogenetika va fitogeografiya bilan shug'ullanadi. Uning eng mashhur ishi shakarqamish va baqlajon bo'yicha o'tkazgan tadqiqotlari hisoblanadi. U 1977-yilda Padma Shri mukofoti bilan taqdirlanadi.



### **Asima Chatterji**

Asima Chatterji 1917-yil 23-sentabrda Hindistonning Kalkutta shahrida tug'ilgan. Uning otasi Indra Narayan Mukerji shifokor bo'lib, Asimaning tibbiyot sohasiga qiziqishi ota kasbi ham sababchi bo'lgan. 1936-yil u Kalkutta universiteti qoshidagi Shotlandiya cherkov kollejini a'lo baholarda tamomlab, kimyo sohasi bo'yicha oliy ta'limda tahsil oladi.

1938-yilda Kalkutta universitetida magistirlik darajasini, 1944-yilda esa Hindiston universitetida doktorlik darajasini olgan birinchi hind ayoli bo'ldi. Asima o'z ilmiy yo'lida organik kimyo va fitomeditsina sohalarida faol tadqiqot ishlarini olib bordi. Uning eng ko'zga ko'ringan ishi vinka alkaloidlari bo'yicha tadqiqoti, epilepsiya va bezgakka qarshi dorilarni ishlab chiqishga qaratilgan edi. Shuningdek, u Hindiston yarimorolidagi dorivor o'simliklar bo'yicha katta hajmdagi ishlarga mualliflik qilgan. Asima Chatterji shuningdek, siyosiy hayotda ham faol bo'lib, 1982-1990-yillarda Rajya Sabha parlament a'zosi sifatida ham faoliyat yuritgan<sup>61</sup>.

1945-yilda Asima fizik-kimyogar Baradananda Chatterjiga turmushga chiqdi. Ularning Juli ismli qizlari bor edi. Asima Chatterji 2006-yil 22-noyabrda 89 yoshida Kalkuttadagi qariyalar uyida vafot etdi.



### **Rajeshvari Chatterji (1922-2010)**

Rajeshvari Chatterji 1922-yil 24-yanvarda Karnatakada tug'ilgan. U boshlang'ich ta'limni buvisi ya'ni, Mysore shahridagi bitiruvchi ayollardan biri bo'lgan va ta'lim sohasida bevalar ishtirokini kengaytirish faoli bo'lgan Kamalamma Dasappa tomonidan asos solingan

---

<https://www.bbc.com/news/world-asia-india-63445015>

<sup>61</sup> Asima CHATTERJEE

<https://scientificwomen.net/women/chatterjee-asima-113>

ingliz maktabida oladi. Dastlab tarix faniga katta qiziqish bildirgan Rajeshvari keyinchalik fizika va matematika sohasiga o'tib ketadi. Matematika sohasi bo'yicha dastlab bakalavr, 1943-yilda esa magistrlik darajasini oladi va Hindiston Fanlar Institutiga tadqiqotchi sifatida qo'shiladi.

1950-yillarda oddiy hind ayollari oliy ma'lumot olish uchun xorijga borish juda qiyin masala edi. Biroq Rajeshvari Marine Adder harbiy kemasida 1947-yil iyulda AQShga jo'nab ketadi va u yerda Michigan universiteti elektrotexnika bo'limida tahsil olib, magistrlik darajasini yoqlaydi. 1953-yilda esa professor fan nomzodi ilmiy darajasini oladi<sup>62</sup>. Shu tariqa Rajeshvari karnatakalik birinchi ayol olim muhandis sifatida tarixda qoldi.

### **Kalpana Chavla**

Kalpana Chavla 1962-yil 17-martda Hindistonning Haryana shtatidagi Karnal shahrida shinalar ishlab chiqaruvchi zavod egasi Banarsi Lal Chavla va Sanjogta Xarbanda oilasida tug'ilgan. Bolaligidanoq Kalpana aerokosmik muhandislikka qiziqish bildirgan, biroq otasi faqat yigitlar aerokosmik muhandislik sohasi bilan shug'ullanishi mumkinligi, qizi esa buning o'rniga unga shifokor yoki o'qituvchi bo'lishini tavsiya qilgan. U Karnaldagi Tagore Baal Niketan o'rta maktabini 1976-yil tamomlaydi.



Kalpana bolalikdagi orzusidan voz kechmaydi va Karnaldagi Dayal Singh kollejida asosiy muhandislik kurslarida tahsil oladi. Keyin u Chandigarhdagi Panjob muhandislik kollejidagi aviatsiya muhandislik maktabida o'qidi va u yerda nazariy aerodinamika tamoyillarini o'rgandi. U dasturdagi to'rt ayoldan biri va kollejda aerokosmik muhandislik saboqlarini olgan birinchi talaba ayol edi. Ba'zi professorlar uni aerokosmik muhandislik sohasini o'rganishdan qaytardilar, bu ayollar uchun mos emasligini va uning o'rniga elektrotexnika sohasini taklif qilishdi. U 1982-yilda muhandislik kolleji bakalavr bosqichini tamomlaydi.

Hindistonda keyingi ixtisoslashtirilgan aerokosmik muhandislik kurslarida qatnasha olmagan uchun Chavla otasining qarshiligiga qaramay, 1982-yilda o'qishni davom ettirish uchun Amerika

---

<sup>62</sup> ALD23: Professor Rajeshwari Chatterjee, Engineer – Ada Lovelace Day  
<https://findingada.com/blog/2023/10/10/ald23-professor-rajeshwari-chatterjee-engineer/>

Qo'shma Shtatlariga yo'l oldi. U 1984-yilda Aerlintondagi Texas universitetida (UTA) "Samolyot qanotlarini o'rnatish uchun o'zaro oqimli fan korpusini optimallashtirish" dissertatsiyasi bilan magistr darajasini yoqladi. 1983-yil 2-dekabrda uchuvchi Jon Pyer Xarrison bilan turmush quradi.

1984-yil Kalpana doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. 1997-yil 19-noyabrda Chavla birinchi kosmik missiyasini Kolumbiya kosmik kemasi STS-87 reysida amalga oshirdi. U parvoz paytida missiya mutaxasisi va zahira parvoz muhandisi bo'lib xizmat qildi<sup>63</sup>. Kalpana Chavla asli hindistonlik Amerika fuqarosi astronaut va aerokosmik muhandis bo'lib, kosmosga uchgan birinchi hind ayoli edi.



### **Dr. Aditi Pant**

Aditi Pant 1943-yil 5-iyulda Hindistonning Nagpur shahrida tug'ilgan. Otasi Appa Sahib Pant obro'li diplomat bo'lib, Yevropa va Afrikaning ko'plab mamlakatlarida Oliy komissar bo'lib ishlagan. Onasi Nalini Devi shifokor bo'lib, Qirollik jarrohlar kolleji a'zosi edi.

Aditi yoshligidanoq ilm-fanga qiziqqan. Uning qiziqishi otanasini tomonidan kechki ovqat vaqtidagi suhbat va ochiq havoda sayohat qilishdan boshlangan. Aditi Puna universitetida bakalavr bosqichini tamomlaydi. U okeanografiya bilan shug'ullanishga qiziqish bildiradi va u Gavayi universitetida dengiz fanlari bo'yicha magistrlik dissertatsiyasini himoya qiladi.

1983-yil dekabridan 1984-yilning martigacha Aditi Antarktika-ga ekspeditsiya uyushtiradi. Bu usha paytdagi bosh vazir Indira Gandi boshchiligidagi bir qator uyushtirilgan ekspeditsiyalarining uchinchi edi. Geolog Sudipta Sengupta bilan birga Aditi Pant Antarktikaga qadam qo'ygan birinchi hind ayoli edi<sup>64</sup>.

Aditi Pant beshta patent egasi va xalqaro jurnallarda 67 dan ortiq maqola muallifi. Hindiston-Antarktida dasturiga qo'shgan hissasi uchun Hindiston hukumati tomonidan Antarktida mukofoti bilan taqdirlangan.

---

<sup>63</sup> NASA. Kalpana Chawla biographical data.

[https://www.nasa.gov/wp-content/uploads/2020/09/chawla\\_kalpana.pdf](https://www.nasa.gov/wp-content/uploads/2020/09/chawla_kalpana.pdf)

<sup>64</sup> ADITI PANT: The First Indian Women to Reach Antartica Region | GyanPro Science Blog

<https://web.archive.org/web/20190908062745/http://gyanpro.com/blog/aditi-pant-the-first-indian-women-to-reach-antartica-region/>

### 3. IJTIMOYIY-IQTISODIY HAYOTDAGI MASHHUR AYOLLAR

Hindiston so'nggi yillarda jadal rivojlanish orqali mamlakatning turli sohalarida ijobiy natijaga erishishga o'z hissasini qo'shmoqda. Bugungi kunda jamiyatdagi xotin-qizlar mamlakatning uy-xo'jaligi ishlari bilan birgalikda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ham muhim rol o'ynamoqda. Shu o'rinda mamlakat bosh vaziri Javoharlal Neruning "Mamlakat taraqqiyotini belgilamoqchi bo'lsang, jamiyatdagi xotin-qizlar ijtimoiy hayotiga boq", degan so'zlari bugungi kunda o'z tasdig'ini topmoqda. Quyida hind jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida katta muvaffaqiyat qozongan xotin-qizlar hayotiga to'xtalib o'tamiz.

#### **Anandibay Joshi**

Anandibay Joshi 1865-yil 31-martda Mumbay yaqinidagi Kalyan shahrida brahmanlar oilasida tug'ilgan. To'qqiz yoshida u o'zidan yigirma yosh katta Gopalrao Joshiga turmushga chiqdi. Bu nikoh garchand uyushtirilgan bo'lsada, Anandibay hayotida burilish nuqta bo'ldi.



Gopalrao Joshi o'z davrining ma'rifatli insoni bo'lib, Anandibay kelajagi shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynadi. U ayollarning ta'lim olishini qo'llab-quvvatlagan. Bu esa tabiiyki jamiyatning noroziligi sabab bo'lar edi.

Anandibay tibbiyot sohasida malakali kadrlar yetishmasligi sabab farzandini yo'qotadi. Bu esa uning tibbiyot sohasini o'rganishga undaydi, shuningdek uni turmush o'rtog'i ham qo'llab-quvvatlab turadi.

XIX asrda hind jamiyati xotin-qizlar ta'lim olishiga qarshi bo'lgan. Shuningdek, ayollarning tibbiyot sohasi kabi professional kasblarni tanlashi aholi tomonidan iliq kutib olinmagan. Shu bois Anandibay kuchli ijtimoiy tajovuz va tanqidga uchraydi. Shu sabab Anandibay ta'lim olish uchun chet elga ketishga qaror qiladi.

1883-yil Anandibay AQShga yetib boradi va ko'pgina to'siqlarga qaramasdan u Pensilvaniya ayollar tibbiyot kollejiga qabul qilindi. Anandibay og'ir iqlim sharoiti, ovqatlanishdagi o'zgarishlar, til muammosi, sog'lig'ining yomonlashuviga qaramasdan 1886-yilda tibbiyot fanlari doktori darajasini tamomlab, g'arb tibbiyot sohasini

tamomlagan birinchi hind ayoli bo'ldi<sup>65</sup>. Uning bu matonati hind ayollari uchun g'alaba sifatida qaraladi. Bu ularning ijtimoiy cheklovlardan xalos bo'lishi va professional sohalarda faoliyat yuritishiga yo'l ochib berdi<sup>66</sup>.

O'qishni tamomlagan Anandibay ayollar salomatligini yaxshilash maqsadida Hindistonga qaytib keladi. U Kolhapurdagi Albert Edvart kasalxonasida ayollar bo'limiga mas'ul shifokor etib tayinlanadi.

Anandibay sil kasalligiga chalingan edi. Hindistonga qaytgach uning sog'lig'i yanada yomonlashadi. U 1887-yil 26-fevralda 21 yoshida kasallikdan vafot etadi. Uning hayoti barcha hind ayollari uchun ta'lim olish har bir insonning huquqi ekanligi, shuningdek, u jamiyatdagi xotin-qizlarni barcha to'siqlarga qaramasdan olg'a intilishga ilhomlantirdi. Uning o'limidan so'ng Anandibay hayoti bir qancha kitob va maqolalar mavzusi bo'lib qoldi. Karolin Xili Dall o'zining "Anandibay Joshi: birinchi hind ayol shifokori" asarida uning hayoti va yutuqlari haqida batafsil ma'lumot bergan<sup>67</sup>.



### **Hansa Jivraj Mehta (1897-1995)**

Hansa Jivraj Mehta hindistonlik islohotchi, ijtimoiy faollardan biri, pedagog, feminist va yozuvchi bo'lib, 1897-yil 3-iyulda Gujaratda tug'ilgan. U Gujaratda joylashgan Baroda kolleji falsafa professori Manubhay Mehtaning qiz edi. Mehta o'rta qizlar maktabida tahsil olgan, u davrda hind ayollarining taxminan 2 foizi savodli edi. 1918-yil falsafa fakultetini tamomlaydi. 1920-yil ustoz Sarojini Naidu bilan Jenevada bo'lib o'tgan Xalqaro xotin-qizlar saylov alyansi konferensiyasida qatnashadi<sup>68</sup>.

1923-yil Mehta Amerikaga oliy ta'limda o'qishini davom ettirish uchun keladi va bu yerda amerikalik ayollar ta'lim olish holatini o'rganadi. 1930-yil u xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy tomonlama ozodlik qilish harakatiga qo'shiladi va Mahatma Gandi bilan yana bir

---

<sup>65</sup> Xayrullayeva I.F. Hindiston mamlakati xotin-qizlar ta'limi evolutsiyasi. // Sharq mash'ali. ISSN 2181-2071. N.1. 2024. – P.95.

<sup>66</sup> Anandibai Gopalrao Joshi: India's First Female Doctor in Western Medicine | Rock & Art <https://www.rockandart.org/anandibai-gopalrao-joshi-female-doctor/>

<sup>67</sup> Anandibai Gopalrao Joshi: India's First Female Doctor in Western Medicine | Rock & Art <https://www.rockandart.org/anandibai-gopalrao-joshi-female-doctor/>

<sup>68</sup> Niraja Gopal Jayal. Hansa Mehtar: An early Indian feminist. //South Asia @ LSE. – India: 2022. –P.2.

bor uchrashadi, 1922-yilda u qamoqxonada Gandi bilan birinchi marotaba uchrashgan edi.

Hindston mustaqillikka erishganidan so'ng davlat Konstitutsiyasi loyihasini ishlab chiqqan assambleyasining bir qismi bo'lgan o'n besh nafar ayol tarkibida Hansa ham bo'lgan<sup>69</sup>. U gender tengligini ta'minlovchi fuqarolik kodeksini yaratish tarafdori bo'lib, mamlakatda ayollar uchun tenglik va adolat himoyachisi edi.

Mehta 1926-yil Bombay maktab qo'mitasiga saylandi va 1945-1946-yillar Butun Hindiston ayollar konferensiyasi prezidenti sifatida faoliyat olib bordi. 1945-1960-yillar SNTD Ayollar universiteti prorektori, Butun Hindiston o'rta ta'lim kengashi a'zosi, Baroda Maharaja Sayajirao universiteti prorektori kabi lavozimlarda faoliyat olib boradi.

Shuningdek, u 1946-yil ayollar maqomi bo'yicha yadroviy quyi qo'mitada Hindiston vakili sifatida qatnashadi. 1947-1948-yillarda BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiyasida Hindiston delegati vakili, 1950-yilda BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiya raisi o'rinbosari, YuNESKO ijroiya kengashi a'zosi ham bo'lgan<sup>70</sup>.

U faoliyati davomida doimo xotin-qizlarning ta'lim olishi, saylov huquqi, ish haqqi, mulkka ega bo'lish sohalarida teng huquqqa ega bo'lishlari uchun kurashadi. Shuningdek, u ayollar va erkaklar salohiyatiga ko'ra jamiyatda o'z o'rnilariga ega bo'lishi zarurligini ham doimo o'z nutqlarida ta'kidlab kelgan.

### **Sarla Thakral (1914-2008)**

Sarla Thakral 1914-yil 8-avgustda Dehlida tug'ilgan. U 1936-yil 21 yoshida aviatsiya uchuvchisi litsenziyasini oldi. U hayotda ko'p qiyinchiliklarga duch keldi, biroq o'z maqsadlariga erishishdan xech qachon ortga qaytmaydi. O'zining ishtiyoqi va jasorati tufayli u Hindistonning birinchi ayol uchuvchisi bo'ldi<sup>71</sup>.



---

<sup>69</sup> Hansa Jivraj Mehta - Constitution of India

<https://www.constitutionofindia.net/members/hansa-jivraj-mehta/>

<sup>70</sup> Hansa Jivraj Mehta - Constitution of India

<https://www.constitutionofindia.net/members/hansa-jivraj-mehta/>

<sup>71</sup> First Female Pilot in India: Sarla Thakral

<https://www.geeksforgeeks.org/first-female-pilot-in-india/>

## **Roshni Nadar Malhotra**



Roshni Nadar hindistonlik milliarder ayol, xayriyachi, HCL Technologies kompaniyasi raisi. U Hindistonda IT-kompaniyasini boshqargan birinchi ayol. U HCL Group asoschisi va milliarder biznesmen Shiv Nadarning yagona farzandi. 2019-2024-yillar Forbes jurnalining 60-va 59-o‘rinlarini egallagan<sup>72</sup>.

2010-yilda Nadar HCL Healthcare vitse-prezidenti Shikhar Malhotraga turmushga chiqdi. Ularning ikki nafar farzandlari bor.

## **Soma Mondal**



Soma Mondal 1963-yil Odishada bengaliyalik o‘rta sinf oilasida tug‘ilgan. Uning otasi qishloq xo‘jaligi iqtisodchisi edi.

Soma Mondal hindistonlik ishbiarman ayollardan biri bo‘lib, u 2021-yil 1-yanvardan 2023-yil 30-aprelgacha Hindiston po‘lat boshqarmasi raisi bo‘lib ishlagan. Sanoatga qo‘shgan ulkan hissasi tufayli “Po‘lat malikasi” sifatida tanilgan Soma Mondal 2022-2023-yillarda Forbes tomonidan “Dunyoning 100ta eng kuchli ayoli” ro‘yxatiga kiritilgan<sup>73</sup>.

## **B.V. Nagaratha**



Nagaratha 1962-yil 30-oktabrda Bangalor shahrida tug‘ilgan. 1984-yilda Dehli universiteti Iso va Meri kollejida tarix bo‘yicha bakalavr darajasini, 1987-yil Dehli universiteti yuridik markazida ilmiy darajasini oladi. 1994-2008-yillarda Karnataka Oliy sudi sudyasi lavozimiga ko‘tarilguniga qadar mustaqil faoliyat olib boradi. 2008-yil 18-fevralda Karnataka Oliy sudining sudyasi, 2010-yil 17-fevralda doimiy sudyasi etib tayinlangan<sup>74</sup>.

---

<sup>72</sup> Roshni Nadar Malhotra’s life

<https://www.forbes.com/profile/roshni-nadar-malhotra/>

<sup>73</sup> Forbes World’s Most Powerful Women - Ranked 2024 List

<https://www.forbes.com/lists/power-women/>

<sup>74</sup> Justice B.V. Nagarathna | Supreme Court of India | India

<https://www.sci.gov.in/judge/justice-b-v-nagarathna/>

2021-yil 31-avgustda Hindiston Oliy sudining sudyasi lavozimiga ko'tarilib, hozirda ushbu lavozimda faoliyat yuritib kelmoqda.

### **Falguni Nayar**



Falguni Nayar 1963-yil 19-fevralda Mumbayda gujarati oilasida tug'ilgan. Uning otasi tadbirkor bo'lgan. U Sidenham Savdo va Iqtisodiyot kollejida, so'ngra Ahmedobod boshqaruv institutining aspiranturasida tahsil oladi.

Falguni 1987-yil biznes maktabida tanishgan Kohlberg Kravis Roberts India kompaniyasining direktori Sanjay Nayarga turmushga chiqdi. Ularning ikki farzandi bor.

Falguni Nayar hozirda milliarder ishbilarmon ayol bo'lib, hindistonlik milliarder ikki ayoldan biri hisoblanadi. "Nykaa" kompaniyasi asoschisi va bosh direktori hisoblanadi<sup>75</sup>.

### **Nita Ambani**

Nita Ambani 1964-yil 1-noyabrda Mumbaydagi o'rta sinf gujaratlik Ravindrabhai va Purnima Dalal oilasida dunyoga keladi. U Narsi Monji savdo va iqtisodiyot kollejida tijorat sohasi bo'yicha bakalavr darajasini tugatgan.



Turmush o'rtog'i Nita Mukesh Ambani bilan maktabda o'qituvchisi sifatida faoliyat yuritayotgan davrda tanishgan va 1985-yilda unga turmushga chiqadi. Ularning ikki o'g'li va bir qizi bor. U hozirda to'rt nafar kichkintoyning buvisi ham hisoblanadi.

1997-yil Ambani Jamnagardagi Reliance neftni qayta ishlash zavodi xodimlari uchun kompaniya shaharchasini qurish loyihasida ishtirok etadi. Loyiha 17000 dan ortiq aholini joylashtirish uchun daraxtlar bilan qoplangan va ekologik toza koloniya tashkil qilishni o'z ichiga olgan<sup>76</sup>.

---

<sup>75</sup> Falguni Nayar

<https://www.forbes.com/profile/falguni-nayar/>

<sup>76</sup> I was mistakenly referred to as 'sir' while working among men in Jamnagar: Nita Ambani | Fortune India <https://www.fortuneindia.com/people/i-was-mistakenly-referred-to-as-sir-while-working-among-men-in-jamnagar-nita-ambani/109308>

Nita Ambani Reliance Industries korporativ asoschisi va raisi. 2014-yilda Reliance Industries boshqaruv kengashiga saylanadi. Reliance Foundation 2010-yilda Nita Ambani tomonidan asos solingan hind xayriya tashkiloti hisoblanadi. Reliance Industries tashkilotning homiysi hisoblanadi. 2017-yil sobiq prezident Ram Nath Kovind tomonidan Nita Ambaniga Rashtriya Khel Protsahan mukofoti topshiriladi.

#### 4. MADANIY-MA'RIFIY SOHADAGI HIND AYOLLARI

Bugungi kunda Hindiston jamiyatidagi xotin-qizlar mamlakatning har bir sohasida o'zlarining tirishqoqligi, iste'dodi va tinimsiz mehnati bilan ulkan muvaffaqiyat qozonib kelishmoqda, bunda madaniy-ma'rifiy sohalar ham mustasno emas. Aynan ushbu sohalar orqali hind jamiyati iste'dodli shoira, qo'shiqchi, yozuvchi hamda aktrisalarni yetishtirib bermoqda. Hozirda birgina madaniyat sohasida Bollivudning o'rni beqiyos bo'lib, hind ayol artyor va aktrisalari nafaqat mamlakatda, balki butun dunyoda mashhurlikka erishib kelmoqdalar. Ular tomonidan yaratilgan asarlar esa barcha xalq vakillari tomonidan iliq kutib olinmoqda. Quyida XIX-XX asrlarda madaniy-ma'rifiy sohalarda o'zlarining iste'dodlari orqali kelajak avlodga o'rnak bo'lgan namoyondalar hayotini o'rganib chiqamiz.

##### **Svarnakumari Devi (1855-1932)**

Hind bengal yozuvchisi, muharrir, sotsialist, dramaturg va yozuvchi Svarnakumari 1855-yil Kalkutta shahrida tug'ilgan bo'lib, u Robindranat Tagorning opasi edi<sup>77</sup>. Svarnakumari va uning opa-singillari maktabga borishmagan, biroq uyda sanskrit va ingliz tillaridan qo'shimcha dars olishgan. O'n uch yoshida u sudya o'rinbosari Janakinath Ghosalga turmushga chiqadi.



1886-yilda Svarnakumari Bengaliyada qashshoq ayollarga yordam berish maqsadida birinchi Sakhi-Samiti nomli xotin-qizlar tashkilotini, keyinchalik Kalkuttada ayollar teosofiya jamiyatiga ham asos soladi<sup>78</sup>.

1889-1890-yillarda Hindiston Milliy Kongressining sessiyalarida qatnashgan Svarnakumari va Kadambini Ganguli Hindiston Milliy Kongressining birinchi ayol delegatlari edi.

Svarnakumari o'ndan oshiq roman, hikoya, uch yuzdan ortiq qo'shiq muallifi hisoblanadi. U asarlari orqali adabiyot tarixida o'z

---

<sup>77</sup> PROMOTION OF SCIENCE IN LATE 19 TH C. BENGAL: SWARNAKUMARI DEVI'S CONTRIBUTION on JSTOR

<https://www.jstor.org/stable/44145933>

<sup>78</sup> PROMOTION OF SCIENCE IN LATE 19 TH C. BENGAL: SWARNAKUMARI DEVI'S CONTRIBUTION on JSTOR

<https://www.jstor.org/stable/44145933>

nomini yozib qoldirdi. U 1927-yilda Kalkutta universitetidan Jagattarani oltin medalini oldi va bu mukofotni qo'lga kiritgan birinchi hind ayoli bo'ldi. 1929-yilda esa "Vangiya Sahitya Sammelan" (Vangiya adabiy konferensiyasi) prezidenti sifatida o'z faoliyatini davom ettirdi<sup>79</sup>.



### **Vidya Munshi (1919-2014)**

Birinchi hindistonlik ayol journalist Vidya 1919-yil 5-dekabrda Mumbayda ziyoli oilada tug'ilgan bo'lib, otasi advokat, onasi esa ijtimoiy faollardan biri bo'lgan. U maktabni tugatgan dastlabki ayollardan biri hisoblanib, keyinchalik Bombeydagi Elfinston kollejida o'qishni davom ettiradi.

U 1954-yilda Kalkuttada Hindiston ayollari milliy federatsiyasining birinchi kongressida qatnashadi. Keyinchalik Buyuk Britaniyaga qaytib ketadi va geograf, journalist Sunil Munshiga turmushga chiqadi.

Vidya 1952-1962-yillarda Bombay haftalik "Blits" jurnalining muhbiri bo'lib ishlagan. Shu tariqa u hindistonlik birinchi ayol jurnalistga aylandi.



### **Mahadevi Varma (1907-1987)**

Varma 1907-yil Uttar-Pradesh shtati Farruxobod tumanida tug'ilgan. Uning otasi Govind Prasad Varma Bhagalpurdagi kollej professori edi. Onasi Hema Rani Devi esa musiqaga qiziqar, farzandi bilan birgalikda soatlab Ramayana, Gita qiroatini o'tkazar edi.

Mahadevi dastlab monastirga, so'ngra Ollohoboddagi qizlar maktabiga qabul qilingan. Yotoqxonada turli dindagi talabalar bilan birga yashaydi. Varma buyerda yashirincha she'rlar yoza boshlaydi, uning xonadoshi Subhadra Kumari Chauhan uning she'rlarini topib olganidan so'ng, yashirin iste'dodidan barcha xabardor bo'ladi<sup>80</sup>.

"Mere bachpan ke din" (Mening bolalik kunlarim) nomli tarjimayi holidi Varma qiz bolaning oilada ortiqcha buyum deb hisoblangan bir vaqtda, u liberal oilada tug'ilganidan xursandligini

---

<sup>79</sup> Swarnakumari Devi: The Forgotten Author And Activist Of The Tagore Family | Feminism in India  
<https://feminisminindia.com/2022/05/16/swarnakumari-devi-the-forgotten-author-and-activist-of-the-tagore-family/>

<sup>80</sup> Mahadevi Varma | Poet, Feminist, Educator | Britannica  
<https://www.britannica.com/biography/Mahadevi-Varma>

yoʻzgan<sup>81</sup>. Mahadevi Varmaning sheʻriyati, ijtimoiy yuksalish va ayollar farovonligi yoʻlidagi faoliyati bilan bir qatorda uning yozuvlarida tasvirlangan.

### **Mannu Bhandari (1931-2021)**

Bhandari 1931-yil 3-aprelda Madhya-Pradesh shtatining Bhanpura shahrida tugʻilgan. Bolaligi esa Ajmer shahrida oʻtib, dastlabki taʼlimni ham shu yerda oladi. Soʻngra Gʻarbiy Bengaliyadagi Kalkutta universitetini tamomlagan. Shundan soʻng, Banoras Hindu universitetida hindiy tili va adabiyoti boʻyicha magistr darajasini oladi.



Bhandari dastlab Kalkuttada hindiy tili oʻqituvchisi boʻlib ishlagan, dastlab Ballunge Shiksha Sadan oʻrta maktabida, keyinroq 1961-1965-yillarda Kalkuttadagi Rani Birla kollejida dars beradi. 1992-1994-yillarda u Vikram universitetidagi Ujjain Premchand Srijanpithda faxriy direktor sifatida xizmat qilgan.

Bhandari 2021-yil 15-noyabrda 90 yoshida Hindistonning Gurgaon shahrida vafot etdi. U oʻzining “Ap ka bunty” (Sizning quyoningiz) va “Mahabhoj” (Bayram) romanlari orqali mashhur boʻlib, 150 dan ortiq asarlar muallifi hamdir<sup>82</sup>. U hind adabiyotidagi “Nayi Kahani” harakati faollaridan boʻlib, u rivojlanayotgan hind oʻrta sinfi vakillari, ishchilar hamda oʻqimishli ayollarning ichki kechinmalarini oʻziga xos tasvirlashi bilan ajralib turardi. Uning asarlari hind oilasi munosabatlari, gender tengligi va kasta tizimi mavzulariga bagʻishlangan.

### **Amrita Pritam**

Amrita Pritam panjob va hind tillarida ijod qiladi. Ijodining dastlabki davrida Robindranath Tagor shaxsiyati va ijodining taʼsiri kuchli boʻlgan. Dastlabki sheʻriy toʻplamlari 1935-yil “Sovuq nurlar” va 1936-yilda “Amrita toʻlqinlari” nashr qilinadi. Hozirgi hind adabiyotining eng nomdor vakillaridan biri boʻlgan Amrita 60 dan ortiq asar, 200 dan ortiq hikoya va ocherklar muallifidir. Adibaning asarlari 30 dan ortiq tillarga tarjima qilinib, nashr etilgan.



<sup>81</sup> Mere bachpan ke din. [https://cbseworld.weebly.com/uploads/2/8/1/5/28152469/1\\_4\\_5\\_5\\_6.pdf](https://cbseworld.weebly.com/uploads/2/8/1/5/28152469/1_4_5_5_6.pdf)

<sup>82</sup> Anusha N.S. Society and women's life depicted in Mannu Bhandari's novel "Apka Bunty". // Innovation the research concept. Vol.6. Issue-5. -India:2021. -P 74-78.

Amrita butun ijodiy faoliyati davomida ayollar hayotiga bog'liq mavzularga qiziqqan va hozirgi insonning ma'naviy holatini ifodalay olgan yaxlit ayol harakterini yaratgan. Uning she'rlari Zulfiya tarjimasini orqali o'zbek matbuotida chop etilgan. U G'afur G'ulom, Oybek, Zulfiya, Asqad Muxtorning ba'zi asarlarini panjob tiliga tarjima qilgan. 1956-yilda Hindiston Adabiyot akademiyasining mukofotini olgan, 1982-yilda esa "Qog'oz va yelkan" she'rlar to'plami uchun "Gyanpitx" mukofotiga sazovor bo'lgan.



### **Perin Jamsetji Mistri (1913-1989)**

Hindistonda arxitektor sifatida malakaga ega bo'lgan birinchi hind ayoli hisoblanadi. U 1913-yil Bombayda tavallud topgan. Dastlabki ta'limni Panchgani shahridagi Miss Kimmin o'rta maktabida olib, keyinchalik 10 yoshida Angliyada joylashgan Kroydon maktabida o'qishini davom ettiradi.

Bombeyga qaytgach, u "Sim Jamseti Jejeebhoy" san'at maktabiga o'qishga kiradi va 1936-yilda arxitektura bo'yicha diplomni qo'lga kiritib, birinchi oliy ma'lumotli hind ayol arxitektori sifatida tarixda qoldi<sup>83</sup>.



### **Amrita Sher-Gil (1913-1941)**

Amrita 1913-yilda Budapeshtda sikh aristokrati, olim, fotograf, o'zining birinchi ustozini Umrao Singh Sher-Gilva hamda vengriyalik opera xonandasi Mari Antuanetta Gotesman oilasida tug'ilgan.

Amrita bolaligidan rasm chizishga qiziqib, sakkiz yoshidan boshlab rassomchilik bo'yicha qo'shimcha dars ola boshlaydi. Dastlabki ta'limni esa otasidan oladi. U birinchi marta 1932-yil 19 yoshida "Yosh qizlar" nomli chizgan asari tufayli omma e'tiboriga tushadi. Sher-Gil o'z rasmlarida asosan, hind xalqining kundalik hayotini tasvirlagani uchun uning asarlari xalq tomonidan iliq kutib olingan<sup>84</sup>.

<sup>83</sup> The life of Perin Jamsetjee Mistri

<https://www.mcgm.gov.in/irj/go/km/docs/documents/D%20Ward/Heritage-Sites/Heritage-40.pdf>

<sup>84</sup> Biennale Arte 2024 | Amrita Sher-Gil

Amrita butun umri davomida Turkiya, Fransiya va Hindiston bo'ylab sayohat qiladi. U XX asrda hind san'ati sohasidagi eng oldi rassomlardan biri hisoblanardi. Sher-Gil rassomchilikdan tashqari shuningdek, kitobxon va pianinochi ham edi.

1941-yil Amrita Lahordagi birinchi yirik yakkaxon shousi ochilishidan bir kun avval og'ir kasal bo'lib, komaga tushib qoladi va 5-dekabrda vafot etadi. Uning o'limi sababini xech kim tushuntirib berolmaydi va tahmin sifatida muvaffaqiyatsiz abort deb topiladi. Uning onasi qizining o'limida eri shifokor Eganni ayblaydi.

Bugungi kunda Budapeshtdagi hind madaniy markazi Amrita Sher-Gil madaniyat markazi deb nomlanadi. Shuningdek, 1969-yil rejissyor Bhagvan Das Garga Amrita Sher-Gil haqida hujjatli filmni suratga oldi. Kino eng yaxshi film sifatida Milliy kino mukofotini qo'lga kiritdi<sup>85</sup>.

### **Asha Bhosle**

Asha Bhosle Bollivud tarixidagi eng iste'dodli ijrochi bo'lib, 800 dan ortiq filmlar uchun 10 000 dan ortiq qo'shiqlar yozgan. U 1932-yil 8-sentabrda tug'ilgan. Unga otasi Dinanath Mangeshkar mumtoz musiqa bo'yicha ta'lim bergan. Asha 1948-yilda "Chunariya" filmida debyutlik qildi, biroq mashhurlikka erishishiga yana mehnat qilish talab etardi. 1948-1957-yillarda u boshqa san'atkorlarga qaraganda qattiqroq ishladi va ko'plab musiqiy asarlarni yaratsa-da, ularning hech biri muvaffaqiyat keltirmadi.

1958-yilda "Lavvanti", "Howrah Bridge" va "Chalti ka naam gaadi" filmiga ishlangan qo'shiqlari uni mashhurlikka olib chiqdi. 1970-yillardan keyingi yaratilgan musiqalari ham unga katta shuhrat keltirdi. Shu tariqa Asha o'zining boshqalarga o'xshamaydigan betakror ovozi va uslubi bilan musiqa olami tarixida o'ziga xos sahifa yaratishga muvaffaq bo'ldi.



### **Durgabay Kamat**

Durgabay Kamat hind kino olamidagi birinchi aktrisa hisoblanib, u 1879-yil Bombeyda brahmanlar oilasida tug'ilgan. U bolaligidan san'atga



<https://www.labiennale.org/en/art/2024/portraits/amrita-sher-gil>

<sup>85</sup> Documentary films and Indian Awakening - Jag Mohan - Google Книги

[https://books.google.co.uz/books?id=DfgADgAAQBAJ&pg=PT128&redir\\_esc=y](https://books.google.co.uz/books?id=DfgADgAAQBAJ&pg=PT128&redir_esc=y)

qiziqqan bo'lib, otasi taniqli musiqachi bo'lgan. Durga bolaligida veena, table va sitar kabi musiqa asboblarini chalishni yaxshi o'zlashtirib oladi.

1900-yillarda kinolarda rol o'ynash ayollar uchun tabu hisoblangan. Shuning uchun ayollar rolini ham erkak aktyorlar ijro etishgan. Durgabay 1913-yilda "Mohini Bhasmasur" mifologik filmida rol ijro etadi va bu film mashhur bo'lib ketadi. U Parvati nomli qahramonni jonlantiradi. Shu orqali Durgabay hind kinomatografiyasi tarixida birinchi aktrisa sifatida qoladi. Kamat rol o'ynagan filmidan keyin kinolarda boshqa aktrisalar ham faoliyat yuritishni boshlab yuborishadi<sup>86</sup>.

---

<sup>86</sup> Durgabai Kamat - The First-Ever Actress Of Indian Cinema!  
<https://www.realshepower.in/durgabai-kamat-first-actress-of-indian-cinema/>

## 5. SPORT SOHASIDAGI MASHUR HIND XOTIN-QIZLAR

XX asr oxiri XXI asr boshlarida Hindistonning barcha sohalarda xotin-qizlarning faol ishtirokini ko'rishimiz mumkin, sport sohasi ham bundan mustasno emas, albatta. Erkaklar bilan bir qatorda ayollar ham o'z mamlakati bayrog'ini sport sohasining barcha turlarida qo'lga kiritgan g'alabalari orqali xorijiy davlatlar shohsupalarida mardonavor hilpiratib, ko'klarga ko'tarishmoqda. Quyida Hindiston sport olamida mashhur bo'lgan ayollar hayoti bilan tanishamiz.

### **Nilima Ghose**

1935-yil 15-iyunda tug'ilgan Nilima Ghose 1952-yilgi Yozgi Olimpiada o'yinlari uchun Hindiston kontingenti nomini olganida 17 yoshga ham to'lmagan edi. U yerda u ikkita musobaqada - 100 metrga yugurish va 80 metrga to'siqlar osha yugurishda ishtirok etishi kerak edi.



1952-yil 21-iyulda atigi 17 yoshida Nilima Ghose ayollar o'rtasida 100 m masofaga birinchi issiqlik poygasida yugurganida rasmiy ravishda Olimpiadada qatnashgan birinchi hindistonlik ayol bo'ldi. Uning 13,8 soniyalik vaqti uni keyingi bosqichga olib chiqa olmagan bo'lsa-da, hindistonlik trekchi ayol o'z nomini tarixga yozib qo'ydi.

Ikki kundan so'ng, Nilima Ghose ayollar o'rtasida 80 metrga to'siqlar osha yugurish musobaqasining eng yosh sportchisi sifatida ishtirok etib, 13,07 soniya natija bilan beshinchi o'rinni egalladi.

### **Meri Kom**

Hindistonlik olimpiya bokschisi, siyosatchi, sobiq Rajya Sabha a'zosi Meri Kom 1982-yil Manipurda tug'ilgan. Oilada ikki qiz, bir o'g'il bo'lib, Meri to'ng'ich farzand edi. Kom kamtarona muhitda ulg'aygan, ota-onasiga qishloq xo'jaligi ishlarida yordam bergan, maktabga borgan va dastlab yengil atletika, keyin esa bir vaqtning o'zida boksni ham o'rgangan.



1998-yilda manipurlik Dingko Singh Bangkokdagi Osiyo o'yinlaridan oltin medal bilan qaytdi. Bu esa Manipurdagi ko'plab yosh havaskor bokschilarni boks bilan shug'ullanishga ilhomlantirgan, ular qatorida Kom ham bor edi.

Kom boksga bo'lgan qiziqishini ancha vaqt otasidan sir tutadi. Chunki otasi uning boks bilan shug'ullanishiga qarshi bo'lib, jangda yuziga jarohat yetib, kelajakda turmushga chiqishiga to'siq bo'ladi deb ishonar edi. Keyinchalik Komning boksga bo'lgan muhabbatini ko'rgan ota uning intilishlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Turmushga chiqqanidan so'ng Meri boksdan qisqa tanaffus oladi va 2007-yilda egizaklarini dunyoga keltirgach yana boksga qaytadi. 2008-yilda Hindistonda o'tkazilgan boks bo'yicha ayollar o'rtasidagi Osiyo chempionatida kumush medalni qo'lga kiritdi. 2010-yilda Qozog'iston va Barbadosda o'tkazilgan ayollar o'rtasidagi boks chempionatida oltin medallarni qo'lga kiritdi. Shuningdek, shu yili Osiyo o'yinlarida u 51 kglik vazn toifasida ishtirok etib, bronza medal bilan taqdirlandi.

Shunday qilib, Kom havaskor boks bo'yicha jahon chempionatida olti marta g'olib chiqqan yagona ayol, dastlabki yetti jahon chempionatining har birida medal olgan hamda sakkiz karra jahon chempioni medalini qo'lga kiritgan yagona ayol bokschiga aylandi. U shuningdek, Xalqaro boks assotsiatsiyasi tomonidan dunyoning 1-raqamli yengil vazn toifasidagi ayollar reytingidan ham o'rin oldi. 2018-yilda Hamdo'stlik o'yinlarida oltin medalni qo'lga kiritgan birinchi hindistonlik ayol, olti marta havaskor boks bo'yicha Osiyo chempioni bo'lgan yagona bokschidir. 2014-yilda Meri Kom hayotiga bag'ishlangan badiiy film suratga olinib, bosh qahramon Merini taniqli aktrisa Priyanka Chopra gavdalantiradi<sup>87</sup>.



### **Mithali Raj**

Hindistonlik kriketchi Mithali Raj 1982-yil 3-dekabrda Rajasthan shtatining Jodhpur shahrida tamil oilasida dunyoga kelgan. Uning onasi Lila Raj va otasi Dorai Raj Hindiston havo kuchlarida xizmat qilishgan. Hozirda Telangana shtati Haydarobod shahrida istiqomat qiladi. Mithali o'n yoshida

---

<sup>87</sup> Мэри Ком (2014) — Фильм.ру  
<https://www.film.ru/movies/meri-kom>

kriket o'ynashni boshlagan. U Haydaroboddagi Keyes qizlar o'rta maktabini hamda Sekunderoboddagi Kasturba Gandhi nomli ayollar kollejida tahsil olgan.

Mithali 2004-2022-yillarda kriket terma jamoasi sardori bo'lgan. U ayollar o'rtasidagi xalqaro kriket bo'yicha eng ko'p to'p urar sportchi sifatida tanilgan. U 2021-yil iyul oyida Sharlotta Edvardning yugurish rekordini yangilab, xalqaro ayollar kriketida eng ko'p yugurgan ayol sportchiga aylandi<sup>88</sup>.

Raj bir qancha milliy va xalqaro mukofotlar bilan taqdirlangan, jumladan, 2003-yilda Arjuna mukofoti, 2015-yilda Padma Shri mukofoti, 2017-yilda Wisden yetakchi ayol kriketchisi, 2021-yilda mayor Dhayan Chand Khel Rathna mukofotlari shular jumlasidandir<sup>89</sup>.

### **Hima Das**

Hima Das 2000-yil 9-yanvarda Assam shtati Dhing shahri yaqinidagi Kandxulimari qishlog'ida dehqonlar oilasida dunyoga kelgan. Oilada besh farzand bo'lib, Hima eng kichigi edi. Hima dastlabki ta'limni Dhing o'rta maktabida oladi.



Hima yoshligidanoq futbolchi bo'lishni xohlagan, biroq taqdir taqazosi bilan u sprinting sport turi bilan dunyoga tanildi. 2018-yil aprel oyida u shu yilgi Hamdo'stlik o'yinlarida Avstraliyaning Oltin qirg'og'ida 400 metr estafetasida qatnashdi<sup>90</sup>.

2018-yilning 12-iyulida Finlyandiyaning Tampere shahrida bo'lib o'tgan U-20 Jahon chempionatida Das 400 metrni 51.46 soniyada bosib o'tdi va xalqaro musobaqada oltin medalni qo'lga kiritgan birinchi hindistonlik sprinterga aylandi. Shu yili sentabr oyida Hima Adidas kompaniyasi bilan shartnoma imzoladi. 2019-yil 2-iyulda Polshada bo'lib o'tgan Atletika bo'yicha 200 metrni 23.65 soniyada, shu yili 7-iyulda Polshadagi Kutno Athletics Meet musobaqasida 200 metrni 23.97 soniyada bosib o'tib, oltin medallarni qo'lga kiritdi. Hima keyingi musobaqalarda ham qatnashib, oltin medal qo'lga kiritdi.

---

<sup>88</sup> Mithali Raj: India captain becomes leading run-scorer in women's cricket - BBC Sport  
<https://web.archive.org/web/20210703172011/https://www.bbc.com/sport/cricket/57709198>

<sup>89</sup> Mithali Raj Profile - Cricket Player India | Stats, Records, Video  
<https://www.espnricinfo.com/cricketers/mithali-raj-54273>

<sup>90</sup> <https://images.app.goo.gl/R87vECifGR3P3oJe7>

Hozirda sportdan tashqari 2021-yildan Hima Das Assam politsiyasi boshlig'i o'rinbosari lavozimida ham faoliyat yuritib kelmoqda.

### **Depika Kumari**



Hindistonlik professional kamonchi Depika Kumari Jharkhand shtati Ranchi shahridan 15 km uzoqlikda joylashgan Chatt qishlog'ida avtoriksha haydovchisi Shiv Charan Mahato va Ranchi tibbiyot kolleji hamshirasi Gita Mahato oilasida tug'ilgan.

Bolaligidan eng sevimli mashg'uloti tosh bilan mangoni nishonga olish bo'lgan. Oiladagi og'ir iqtisodiy holat tufayli unga otasi sevimli o'yinchoqlarini olib berolmaydi. Bu vaziyatda Depika bambukdan kamon va o'q yasab, kamondan otish bilan shug'ullanadi.

Depika 2005-yilda Harsavanda joylashgan Arjun nomli kamondan otish akademiyasiga o'qishga kirishi uning sport sohasidagi ilk yutug'i edi. 2006-yilda esa Jamshedpurdagi Tata o'q otish akademiyasiga qo'shilganidan so'ng sport sohasida professional sifatida faoliyatini boshlaydi. 2009-yil noyabr oyida Depika AQShning Yuta shahrida o'tkazilgan kamondan otish bo'yicha jahon chempionatida oltin medalni qo'lga kiritdi<sup>91</sup>. 2010-yil Dehli Hamdo'stligi o'yinlarida u ikkinchi oltin medalni qo'lga kiritdi<sup>92</sup>. Shundan so'ng, Depika kamondan o'q otish bo'yicha turli musobaqalarda qatnashib, ko'plab mukofotlarni qo'lga kiritdi.



### **Saniya Mirzo**

Hindistonlik tennischi Saniya Mirzo 1986-yil 15-noyabrda Mumbai shahrida sport jurnalisti Imron Mirzo oilasida tug'ilgan. Dastlabki ta'limni Haydaroboddagi Nasr maktabida olib, keyinchalik Avliyo Meri kollejini tamomlaydi.

Saniya olti yoshidanoq tennis bilan shug'ullanib, 2003-yilda professional tennischiga aylanadi. U bolaligidan otasi orqali sportga mehr qo'yadi. Mirzo o'smirlar safida 10 ta yakkalik va 13 ta juftlik

---

<sup>91</sup> Why archer Deepika Kumari is a serious medal contender in the Tokyo Games  
<https://www.indiatoday.in/india-today-insight/story/why-archer-deepika-kumari-is-a-serious-medal-contender-in-the-tokyo-games-1820725-2021-06-29>

<sup>92</sup> Deepika Kumari | Chief Minister of Jharkhand | Government of Jharkhand, Ranchi  
<https://cm.jharkhand.gov.in/deepika-kumari>

bahslarda g'olib chiqqan. U juda kuchli zarbaga ega bo'lgan hujumkor baza layneri bo'lib, yer osti zarbalarining aniq tezligi bilan yaxshi hujum tashkil etishi orqali boshqalardan ajralib turadi.

Faoliyati davomida Saniya bir necha bor faxrli mukofotlar bilan taqdirlanadi, jumladan, 2004-yilda Arjuna mukofoti, 2006-yilda Padma Shri, 2016-yilda Padma Bhushan hamda 2014-yilda Telen-gana hukumati Saniyani davlatning brend elchisi etib tayinladi. Shuningdek, Saniya BMT Ayollar tashkilotining Janubiy Osiyodagi yaxshi niyat elchisi etib e'lon qilindi. U tashkilot tarixida yaxshi niyat elchisi etib tayinlangan birinchi janubiy osiyolik ayol hisoblanadi<sup>93</sup>.

### **PV Sindhu**

Pusarla Venkata Sindhu 1995-yil 5-iyulda Haydarobod shahrida tug'ilgan bo'lib, uning ota-onasi milliy darajadagi volleybolchilar bo'lishgan. Dastlabki ta'limni Auxillium o'rta maktabida, so'ngra esa Sent-Enn qizlar kollejida davom ettirgan.



Sindhu 2009-yildan xalqaro musobaqaga kirib, shu yili Kolomboda o'tkazilgan badminton bo'yicha o'smirlar o'rtasidagi Osiyo chempionatida bronza medali sovrindori bo'lgan. Xalq orasida PV Sindhu nomi bilan tanilgan badmintonchi tez orada turli turnirlarda, jumladan, Olimpiya o'yinlari, Jahon turneri hamda Jahon chempionatida medallarni qo'lga kiritadi. U badminton bo'yicha jahon chempioni bo'lgan birinchi va yagona hindistonlik hamda Olimpiada o'yinlarida ketma-ket medalni qo'lga kiritgan ikkinchi hindistonlik sportchi hisoblanadi<sup>94</sup>.

### **Dipa Karmarkar**

Olimpiya o'yinlarida qatnashgan birinchi ayol hindistonlik gimnastikachi Dipa Karmakar 1993-yil 9-avgustda Tripuradagi Agartala shahrida dunyoga kelgan. Dipa gimnastika bilab shug'ullana boshlaganida unda yassioyoqlik bor bo'lib, mashg'ulotlar natijasida keyinchalik oyog'i to'g'rilanib ketadi.



<sup>93</sup> Sania Mirza announced as UN Women Goodwill Ambassador for South Asia (2014)| UN Women – Headquarters

<https://www.unwomen.org/en/news/stories/2014/11/sania-mirza-un-women-goodwill-ambassador-for-south-asia>

<sup>94</sup> PV Sindhu Biography, Records, Medals and Age

<https://olympics.com/en/athletes/v-sindhu-pusarla>

2007-yildan buyon Karmakar davlat, milliy va xalqaro chempionatlarda 77 ta medal, jumladan, 67 ta oltin medalni qo'lga kiritadi. 2008-yilda Jalpaiguri shahrida o'tkazilgan o'smirlar musobaqasida g'olib chiqadi. 2010-yilda u Dehlida bo'lib o'tgan Hamdo'stlik o'yinlarida Hindiston gimnastika kontingenti qatorida ishtirok etadi<sup>95</sup>.

---

<sup>95</sup> Dipa Karmakar retires from gymnastics  
<https://olympics.com/en/news/dipa-karmakar-gymnastics-retire-india>

## XULOSA

Hindiston tarixida xotin-qizlar o'zining boy merosi, siyosiy yetakchiligi, ilmiy tafakkuri va madaniy ijodi bilan ajralib turgan muhim ijtimoiy qatlam sifatida namoyon bo'ladi. Tarixiy jarayonlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hind jamiyatining barcha bosqichlarida – qadimgi davrdan to zamonaviy kungacha – ayollar nafaqat oilaviy hayotda, balki davlat boshqaruvi, siyosat, ilm-fan, ta'lim, iqtisodiyot, madaniyat va sport sohalarida faol ishtirok etganlar.

Xususan, qadimgi davrda yashagan Rani Lakshmibai, Razia Sulton, Meerabai kabi tarixiy shaxslar namunasi Hind jamiyatida ayollar siyosiy irodasi va qaror qabul qilish jarayonidagi ishtirokining ildizlari chuqur tarixiy asosga ega ekanini ko'rsatadi. Ularning faoliyati Hindiston tarixida ayollarning faqat oilaviy yoki xonadon doirasida emas, balki ijtimoiy va siyosiy maydonda ham muhim rol o'ynaganini isbotlaydi.

Zamonaviy davrga kelganda esa Indira Gandi, Sarojini Naidu, Kalpana Chawla, Kiran Bedi, Mary Kom kabi lider ayollar misolida Hindistonda ayollarning nafaqat davlat boshqaruvi va siyosiy jarayonlarda, balki ilmiy kashfiyotlar, kosmik tadqiqotlar, sport va gender tengligi masalalarida ham faol ishtirok etayotganini kuzatish mumkin. Ushbu shaxslarning biografialari orqali Hindiston ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida ayollar hissasining beqiyos ekani tahlil qilindi.

Risolada tahlil qilingan faktlar shuni ko'rsatadiki, Hindistonda tarixan xotin-qizlar jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida faol ishtirok etgan. Ularning siyosiy ong va tafakkur rivojiga qo'shgan hissasi, ilmiy va pedagogik faoliyati, ijtimoiy adolat yo'lidagi kurashi, shuningdek, sport va san'at sohalaridagi yutuqlari Hind jamiyatining madaniy genofondida muhim o'rin tutadi.

Ushbu ilmiy-amaliy risola Hindiston tarixidagi ayollar harakati, ularning shaxsiy va jamoaviy yutuqlari, tarixiy taraqqiyotdagi tutgan mavqei haqida kompleks tasavvur beradi. Tadqiqot natijalari ayollarning o'zlikni anglash jarayonidagi faolligi, gender tengligi, ijtimoiy inklyuziya va modernizatsiya jarayonlaridagi rolini yanada chuqurroq o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Shu bois, mazkur risola nafaqat tarixshunoslik, balki sotsiologiya, siyosatshunoslik, gender tadqiqotlari va madaniyatshunoslik fanlari uchun ham muhim ilmiy manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anusha N.S. Society and women's life depicted in Mannu Bhandari's novel "Apka Bunty". //Innovation the research concept. Vol.6. Issue-5. –India:2021. –P 74-78.
2. Aradhan Singh. Udruma Devi: The warrior queen. //Shanvedhana. Vol.III. Issue-1. 2021. –P. 35-39.
3. Turg'un Fayziyev. Temuriy malikalar. – Toshkent:2013. – 41-48 b.
4. Dona M.D., Chris L.R. and Robert W. Gemstones in the Era of the Taj Mahal and the Mughals. //Gem art of the Taj Mahal. 2019. 294-319 pp.
5. Zareen Masani. Indira Gandhi: A biography. – Delhi:Oxford University Press. January 1976. – 341 p.
6. Dr. Jhumur Ghosh. Indira Gandhi's call of emergency and press censorship in India: the ethical parameters revisited. //Global Media Journal-Indian Edition. Vol.7.Issue-2. 2017. –P. 15.
7. D. Devi Gayatri, and Santha Rama Rau. A Princess Remembers: TheMemoirs of the Maharani of Jaipur. South Asia Books, 1998. – P.36.
8. 8.Sonam Soni. The Rajmata of Jaipur: Maharani Gayatri Devi. Rajasthan History Congress. 2022. – P.342.
9. Xayrullayeva I.F. Hindiston mamlakati xotin-qizlar ta'limi evolutsiyasi. // Sharq mash'ali. ISSN 2181-2071. N.1. 2024. – P.95.

### Internet manbalari

1. Юлия Боровинская. РАЗИЯ — ДОЧЬ КИПЧАКА, ЖЕНЩИНА-СУЛТАН. Как тюрчанка управляла Индией? (06.07.2024). <https://qalam.global/ru/articles/raziia-doc-kipcaka-zenshhina-sultan-ru>
2. Rudrama Devi (1259-1289): The brave warrior queen of the Kakatiya empire. <https://dharmayudh.com/rudrama-devi-1259-1289-the-brave-warrior-queen-of-the-kakatiya-empire/> (09.07.2024).
3. Nur Jahan – Google Art and Culture. <https://artsandculture.google.com/entity/m02blvy> (11.07.2024).
4. Jodha Bai's 474th birth anniversary: 17 facts about the Queen Mother - India Today. <https://www.indiatoday.in/education-today/gk-current-affairs/story/jodha-bai-344257-2016-10-01> (23.08.2024).
5. Did you know Sheila Dikshit was jailed for 23 days in 1990? <https://www.dnaindia.com/india/report-did-you-know-sheila-dikshit-was-jailed-for-23-days-in-1990-2774058> (22.09.2024).
6. Sheila Dikshit, 3-Time Chief Minister, Appointed Delhi Congress Chief

<https://www.ndtv.com/india-news/sheila-dikshit-former-chief-minister-to-be-new-delhi-congress-chief-1975829> (26.09.2024).

7. प्रियंका गांधी के हाथ यूपी विधानसभा चुनाव में 'कांग्रेस' की कमान, क्या साबित कर पाएंगी खुद को, ऐसा रहा है सियासी सफर

<https://www.timesnowhindi.com/elections/article/command-of-congress-in-the-up-assembly-elections-2022-in-the-hands-of-priyanka-gandhi-know-how-is-her-political-journey/386271> (11.10.2024).

8. Hamida Banu Begim.  
<https://www.wisemuslimwomen.org/muslim-woman/hamida-banu-begum-2/> (15.10.2024).

9. Jagran Josh. Roziya Sultan: The first woman ruler of India (2016).  
[https://www.jagranjosh.com/general-knowledge/Roziya-sultanthe-first-women-ruler-of-india-1440495978-1](https://www.jagranjosh.com/general-knowledge/Roziya-sultan-the-first-women-ruler-of-india-1440495978-1) (19.10.2024).

10. Rani Rudrama Devi. <https://www.geeksforgeeks.org/rani-rudrama-devi/> (11.08.2024).

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
1. Davlat boshqaruvida va siyosiy hayotdagi ayollar.....	5
2. Ilm-fan va ta'lim sohasidagi mashhur hind ayollari .....	22
3. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi mashhur ayollar .....	29
4. Madaniy-ma'rifiy sohadagi hind ayollari.....	35
5. Sport sohasidagi mashur hind xotin-qizlar .....	41
Xulosa .....	47
Foydalanilgan adabiyotlar .....	48

**Iroda XAYRULLAYEVA**

# **HINDISTON TARIXIDAGI MASHHUR XOTIN-QIZLAR**

Risola

Muharrir: O.Fozilova

Dizayner-sahifalovchi: U.Raxmatov

Tasdiqnoma №212405. 25.01.2024-y.

«BEST-PUBLISH» nashriyoti

18.09.2025-da nashrga ruxsat etildi. Format 60x84 1/16.

Shartli b.t. 3,0. Hisob. b.t. 3,25. Times garniturası.

30 nusxa. 83-buyurtma.

100000, Toshkent shahri, Oqtepa ko'chasi, 49-uy.

Tel.: +998 97 755-99-07; +998 94 673-99-07.

email: best-publish2024@gmail.com

*Qaydlar uchun*